

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

MILLIY G'OYA, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruhsat beraman”

Tarix fakulteti dekani

A. Pardaev

“ _____ ” _____ 2019 yil

5111600- Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun

**FUQAROLIK JAMIYATINING HOZIRGI ZAMON TALQINI
mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: S. Yarashov

Ilmiy rahbar: B.M. Ochilova

Ishni himoyaga tavsiya etaman B.M. Ochilova

**BMI Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari
kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror №
____, ____ . 2019 yil) himoyaga tavsiya etilgan**

Kafedra mudiri

M. Xoshimxonov

Jizzax-2019

BMI A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Institutining Tarix fakulteti “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida bajarilgan.

Taqrizchilar:

Жиззах ДПИ Ижтимоий фанлар кафедраси
катта ўқитувчиси С. Назарқосимов

.....

Himoya 2019-yilning _____soat____da A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Tarix fakultetida davlat attestatsiya komissiyasining bakalavr darajasini olish uchun yig’ilishida o’tkaziladi. Manzil: Tarix fakulteti 406-xona.

Ish bilan A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika institutining Axborot Resurs markazida tanishish mumkin (manzil: Jizzax shahri Sharof Rashidov shoh ko’chasi, 54).

MUNDARIJA

KIRISH.....

I BOB. HOZIRGI ZAMON KONSEPSIYALARIDA FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSIY MASALALARI

- 1.1. Fuqarolik jamiyatiga oid yondashuvlar.....
- 1.2. Fuqarolik jamiyati borasida zamonaviy xorijiy yondashuvlar.....
- 1.3. Fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik.....

II BOB. O'ZBEKISTONDA OCHIQ FUQAROLIK JAMIYATI VA UNING ZAMONAVIY TAHLILI

- 2.1. Ma'rifiylik va dunyoviylik – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omili.....
- 2.2. Fuqarolik jamiyatiga oid yondashuvlarini o'rganish usullari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Mazuning dolzarbligi. Insoniyat azal-azaldan ideal jamiyat va komil insonni shakllantirish orzusida yashab keladi. Har bir davrning ilg'or tafakkur egalari ushbu masalani chetlab o'tmagan hamda bu borada turli nazariya va konsepsiyalarni ilgari surganlar. Garchi ular shaklan farqlansa-da, mohiyatan bir-birini to'ldirib, takomillashtirib, ijtimoiy taraqqiyot yo'llarini ko'rsatib beruvchi ilg'or ta'limotlarga aylandi. Bugungi kundagi zamonaviy jamiyatlarning demokratik qadriyat va tamoyillar asosidagi rivojlanish yo'lini, shubhasiz, ana shunday ta'limotlarning qaymog'i deya e'tirof etishimiz mumkin. Bunda fuqarolik jamiyatini insoniyatning ming yillar davomida intilib kelgan ideali desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki tenglik, erkinlik, ijtimoiy adolat, ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari aynan mana shu tushunchada – fuqarolik jamiyatida o'z aksini topadi.

I.A. Karimov bu borada quyidagi fikrlarni ilgari surgan edi: «Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p-ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib yetib kelgan. Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz. Lekin bu go'zal orzuga erishmoq uchun tinimsiz intilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, o'z zaminimizga tatbiq etish lozim. Shu bilan birga, milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analарimizni, hamisha iymon-e'toqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur»¹.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. Mustaqil O'zbekistonda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti Islom Karimovning bir qancha asarlarida, jumladan, «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'li» (1992), «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1997), «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1998), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-b. – T.: O'zbekiston, 1999. –B. 304.

yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» (2005), «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» (2010) kabilarda asoslab berildi.

J.Koen, E.Arato, D.Grin, M.Uoltser, L.Yakobson, E. Gellner singari olimlar fuqoroli jamiyati hodisasiga kompleks yondashgan bo'lsa, R.Dvorken, A.Seligman, M.Plattner singari horij olimlari fuqarolik jamiyatini liberalizm hamda demokratiya munosabati nuqtai nazaridan talqin etishgan.

Tadqiqotning ob'ekti. Fuqarolik jamiyatining hozirgi zamon talqini.

Tadqiqotning predmeti. Hozirgi zamon konsepsiyalarida fuqarolik jamiyatining asosiy masalalari.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Fuqarolik jamiyati borasida zamonaviy yondashuvlarni ўрганиш. Шу мақсаддан келиб чиқиб қуйидаги вазифалар белгиланди:

- fuqarolik jamiyati masalalarini o'rganishda zamonaviy yondashuvlarni ham o'rganish;

- fuqarolik jamiyati tushunchasining g'arbda o'ta ommalashib ketish sabablarini o'rganish;

-fuqarolik jamiyati va liberalizm munosabatlarini ochib bериш;

-fuqarolik jamiyati va demokratiya моҳиятини таҳлил қилиш;

-fuqarolik jamiyatida individ erkinligi, ixtiyoriylik va ko'ngillilik заруриятини асослаш;

-fuqarolik jamiyati bilan davlat munosabatlarini ochib bериш;

-fuqarolik jamiyatida omma manfaati va shaxs manfaati kabi jihatlarda tahlil etilgan.

Tadqiqot usullari. Tahlil (analiz), sentiz (umumlashtirish), induktiv va deduktiv metod, taqqoslash, xulosa chiqarish.

BMI ning tuzilishi va hajmi. Kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi **71- bet.**

I BOB. HOZIRGI ZAMON KONSEPSIYALARIDA FUQAROLIK JAMIYATINING ASOSIY MASALALARI

1. 1. Fuqarolik jamiyatiga oid yondashuvlar

Fuqarolik jamiyatiga oid ilk qarashlar va ilmiy o'rganishga doir uslubiy yondashuvlar bir necha asrlar davomida vujudga keldi. Jon Lokk va Immanuil Kant kabi faylasuflar ham "fuqarolik jamiyati" deganda, avvalo, "davlat"ni tushunishga moyil bo'ldilar. Ammo, bora-bora fuqarolik jamiyati bilan mutloq davlat institutlari o'rtasidagi tafovud yaqqol ko'zga tashlanaverdi. Tomas Gobbas, Jonn Lokk, Sharl de Monteskye kabi olimlar jon-jahdlari bilan himoya qilgan individualizm konsepsiyasi esa kun tartibiga jamiyatning erkin fuqarosi, shuningdek, shaxs erkinligi masalasini qo'ydi. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi mavjud konsepsiyalar o'ziga ko'plab murakkab muammolar tizimini qamrab oldi. Bu nazariyalarni, ularning metodolgik manbalari va tarixiy yo'nalishini tadqiqot jarayonidagina anglash mumkin.

Yevropada fuqarolik jamiyati to'g'risidagi ilk g'oyalar XVII asrning o'rtalarida Tomas Gobbsning "Tabiiy va siyosiy qonunlar unsurlari", "Fuqaro haqida", shuningdek, boshqa davlat va hokimiyatga doir ("Leviafan") asarlarida o'z ifodasini topganidan keyin shakillandi. Shu davrdan boshlab fuqarolik jamiyati dolzarb ijtimoiy-siyosiy tasavvur va tushuncha sifatida takomillashib bordi².

Tomas Gobbs dastavval insondagi tabiiylikni uning ijtimoiy sifatlariga qarama-qarshi qo'ydi. Bu davrdagi qarashlarda boshqarilib bo'lmaydigan, nosiyosiy, shu sababli ham ijtimoiylashmagan, ya'ni jamiyat va davlat qonunlariga yoki hokimiyatga, shuningdek, siyosatga bo'ysunuvchi ijtimoiy borliqda ayrim kengliklar ham mavjudligiga doir tasavvurlar shakllandi.

Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi yangi qarashlarning dastlabki muammolaridan biri – uning kelib chiqishidagi tabiiylik bilan ijtimoiy-siyosiy jihatlarni asoslab berish edi. Bu davrda insonni o'zini ikki xil – tabiiy va ijtimoiy kelib chiqishi to'g'risidagi qarashlar paydo bo'lgan edi. Unga binoan, jamiyat, davlat va uning siyosati tabiiylik kasb etishi lozim. Jamiyatning ana shunday tabiiy boshlanishini sivilizatsiyaga ergashganlik, deb baxolash rasm bo'ldi. Natijada civitas (sivitas) – shaxar

² Qarang: История политических и правовых учений XVII-XVIII вв. – М.: Наука. 1989. –С.60-61.

tushunchasidan civilitas (sivilitas) – boshqaruv, fuqarolik, davlat, siyost, fuqarolik jamiyati (qadimgi Rimdagidek) tushunchasiga o'tish boshlandi³.

Tomass Gobbs jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni, fuqarolik munosabatlari bilan siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirish maqsadlari huquqiy davlat qurish muammolarini kun tartibiga qo'yishini yozgan edi. Uning fikricha, albatta, huquqiy davlatni barpo etmay turib, fuqarolik jamiyati qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi⁴.

Demokratik jamiyat qurish masalalari sohasida boy ilmiy meros va tadqiqot uslublari shakllanishiga katta hissa qo'shgan mutaffakkirlardan biri Jan Jak Russodir (1712-1778). Russo o'rta – “uchunchi tabaqa” mafkurasi asoschilari jumlasiga kiradi.

Russoning yozishicha, “tabiiy holatda ozgina bo'lgan notenglik bizning qobilyatlarimiz rivojlanishi va inson taffakkuridagi muvoffaqqiyatlar hisobiga o'sib boradi va nihoyat, mulkchilik va qonunlarning o'rnatilishi natijasida yanada mustahkamlanadi va qonunlashadi”⁵. Natijada shaxslar o'rtasidagi notenglik huquqi tabiiylik huquqi bilan ziddiyatga kirishadi. Shundan kelib chiqib, Russo ilgari surgan ijtimoiy shartnomaga muvofiq holda xalqning suverenlik huquqi asoslab berildi: shartnoma faqat xalq va hukumat o'rtasida emas, balki millatning barcha a'zolari o'rtasida tuziladi. Bu shartnoma ijtimoiy atomlar qorishmasi yoki individumlar yig'indisi emas, balki hamyurtlar-vatanparvarlar hamjamiyatidir. Hamyurtlar irodalari mehanik yoki arifmetik jihatlardan birlashmaydi, bu “barchaning irodasi” emas, balki haqiqiy hamyurtlar umumiy manfaatlarini ifodalaydigan umumiy irodadir. Bu umumiy iroda “har vaqt doimiy, o'zgarmas va shaffofdir”⁶. U o'zida bo'linmas va ajralmas xalq suvirenitetini ifodalaydi, hukumat xalqning qo'lidan xalq irodasiga muvofiq bajaradigan ijroiya hokimiyatini topshiriq sifatida oladi va u bu irodani buzushga haqqi yo'q.

Shu bilan birga, yillar o'tgan sayin Russo nazariy qarashlarida o'zgarishlar ham ro'y bera boshladi. U o'zining “Tengsizlikning kelib chiqishi va sabablari to'g'risida

³ Qarang: Кравченко И.И. Концепция гражданского общества в философском развитии. – Политические исследования, 1991. –С.128-130.

⁴ Qarang: Томас Гоббс. Избр. Произведения: В 2 т. Т. 1. – М.,1965. 59-бет. Т.2. –С.114-115.

⁵ Русо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты. – М.: “Канон-пресс”, “Кучково поле”. 1998. –С.139.

⁶ Qarang: Руссо Ж.Ж. Трактаты. – М.: 1969. 160-162, 171. –С.193.

mulohazalar” asarida yozishicha, go’yoki jamiyat rivojlanishining o’zi ichki zaruriyat bo’lib, pirovard natijada despotizmga barxam beradi. “Ijtimoiy shartnoma” asarida esa bu kabi zaruriyaga ehtiyojlar ko’zga tashlanmaydi: ichki zaruriyat emas, balki faqat hukumatning o’z hokimiyatini suistemol qilishi xalqning dastlabki erkinliklarini xavf ostiga qo’yadi. O’z hokimiyatini suistemol qilish natijasida hukumat oily hokimiyatni egallagan davrdan boshlab “ ijtimoiy shartnoma bo’ziladi va oddiy fuqarolar o’zlarining dastlabki tabiiy erkinlik huquqlariga ega bo’lgan holatga qaytadilar, bunda fuqarolarni faqat zo’rlik bilan itoat ettirish mumkin, lekin endi ular itoat etish majburiyatini o’zlaridan soqit qiladilar”⁷.

Umuman, Russoning nazariy qarashlari, ayniqsa, xalq suverintitiga doir ilmiy merosi hozirgi davrdagi fuqarolik jamiyatiga oid nazariy qarashlarni rivojlanishiga muhim hissa qo’shdi. Uning ahloq meyorlari va ijtimoiy shartnoma asosida jamiyat barpo etishga doir ilmiy izlanishlari inson erkinligi va huquqini taminlash sohasidagi birlamchi manba sifatida yashab kelmoqda. Shuningdek, jamiyatni o’rganishning Russo asoslab bergan uslubiy yondashuvlari hozirga qadar o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

Fuqarolik jamiyatiga doir nazariy va metodologik manbalarning rivojlanishida Immanuel Kantning (1724-1804-yy) munosib hissasi bor. Kant fuqarolik jamiyati barpo etishni insoniyatning eng asosiy vazifasi, deb bildi: “Inson zotini o’z muammolarining yechimini topishga intilishi natijasi, bu – umumiy huquqiy fuqarolik jamiyatiga erishishdir. O’z a’zolariga buyuk erkinliklar beradigan jamiyatgina o’zida to’la antagonism mavjud bo’lishiga qaramasdan, boshqalarning erkinliklari bilan kelisha oladi, bu erkinliklarni aniq belgilab beradi. Faqat shunday jamiyatdagina tabiyatning oily maqsadi amalga oshishi mumkin: insoniyatga ato etilgan barcha qobilyat nishonalari rivojlanadi; shu bilan birga, unga nisbatan belgilangan boshqa maqsadlar qatorida ana shu maqsad ham o’z-o’zidan amalga oshishi tabiyatning xohishidir”. Insonning fuqaro sifatidagi muhim huquqiy belgisi erkinlik, tenglik va mustaqillikdir⁸.

⁷ Qarang: Асмус В.Ф. Историко-философские этюды. – М.: Мысль. 1984. –С.119.

⁸ Кант И. Идея всеобщий истории во всемирно – гражданском плане. Соч. В 6-и т. Т. 6. – М., 1996. –С.13-14.

Shubhasiz, fuqrolik jamiyati va davlat munosabatlarini mukammal ishlab chiqqan mutaffakkirlardan yana biri Georg Gegeldir (1770-1831-yy). Fuqarolik jamiyati, deb ta'rif beradi Gegel, faoliyati qonun bilan boshqariladiga shaxslar, sinflar, guruhlar va boshqa institutlarning majmuasi bo'lib, bu majmua to'g'ridan-to'g'ri siyosiy davlat boshqaruviga bog'liq emas. Shuningdek, Gegel bu haqda quyidagi fikrni bildirgan: "Fuqarolik jamiyatining tabiyati shundayki, unda har bir alohida insonning huquqi davlatning shaxsiy huquqiga aylanishga ulgurgan bo'lib, unda davlat "o'zing zimmasiga" mening huquqlarimni huddi o'zing huquqlaridek himoya qilish va qaror topdirish majburiyatini oladi"⁹.

Gegel birinchilardan bo'lib "davlat" va "fuqarolik jamiyati" o'rtasida xam tafovutlar, xam o'zaro bog'liqliklar borligini takidlab, fuqarolik jamiyatini inson mehnatining rohatini topadigan joy, deb qaraydi. Shu bilan birga, mutafakkir davlat insonga bunday jamiyat qurish imkoniyatini ochib beradi, degan fikrni bildiradi¹⁰.

G'arbiy yevropa mamlakatlari jamiyatlaridagi o'rta mulkdor tabaqasining mustahkamlanib borishi, sanoat va savdoning rivojlanishi, bozor munosabatlarining kengayib borishi bilan erkinlashtirish (liberalizm) mafkurasini ham shakllanib bordi. XIX asrga kelib bu mafkura ta'sirli siyosiy va intellectual oqimga aylandi. Bu mafkuraning tarafdorlari boshqa turlicha ijtimoiy tabaqalarda ham mavjud edi. Lekin, liberalizmning asosiy ijtimoiy tayanchi, avvalo, sanoat va savdo sohasidagi o'rta tadbirkorlar, shuningdek, mayda mansabdorlarning bazi vakillari, erkin kasb egalari va universitetlar olimlaridan iborat edi.

O'rta ijtimoiy qatlam, ya'ni "uchinchi tabaqa"ning liberal mafkurasini yaratishga Ieremiya Bentam (1748-1832 yy) katta hissa qo'shdi. U Tomas Gobbs, Jon Lokk, David Yum falsafiy g'oyalari, XVIII asrdagi fransuz ma'rifatparvarlari Klavd Andian Gel'vetsiy, Anri Golbax qarashlarini chuqur o'rganish asosida utilitarizm¹¹ nazariyasiga asos soldi. Unga muvofiq to'rtta qoida asos qilib olindi: qoniqish olish va azoblanishning barham topishi insoniy faoliyatning mohiyatini tashkil etadi;

⁹ Гегел Г.В.Ф. Философия права. – М.: Мысль. 1990. –С.418.

¹⁰ Гегел Г.В.Ф. Философия права. – М.: Мысл. 1990. –С.279-286.

¹¹ Utilitarizm – lot. "utila" – "foйда"; foйда yoki naf ko'rish ahloq asosiy g'oyasini ilgari surgan etikadagi yunalishlardan biri.

foydali bo'lish, qandaydir masalani yechish vositasi bo'lish imkoniyati – barcha hodisalarni baholashning eng ahamiyatli mezonini hisoblanadi; ma'naviyat odamlarga baxt-farovonlik keltirish maqsadida ko'pchilik tomonidan yaratiladi; individual va umumiy manfaatlarni uyg'unlashtirish yuli bilan umumiy foydani ko'paytirish insoniyatning eng muhim rivojlanish g'oyasidir¹².

Bentam XIX asrdagi liberalizmga asos solgan mutafakkirlardan biridir. Lekin Bentam liberalizmining betakror tomonlari ham bor. Ma'lumki, liberalizmning negizi, deb shaxs erkinligi to'g'risidagi qoida, individning xususiy mulk va siyosiy-huquqiy tizim tomonidan taminlanadigan faoliyatning avtanom kengligi va individning o'zini o'zi ifodalay olishi kabilar tushunilgan. Lekin Bentam alohida olingan inson haqidagina fikr yuritmaydi, balki u ko'proq shaxsning xavfsizligi va manfaatlari nuqtai nazaridan baho beradi. Inson o'zining g'amini o'zi yeyishi, o'z farovonligini o'zi ta'minlashi, tashqi yordamga kamroq muxtoj bo'lishi lozim. Faqat insonning o'zigina shaxsiy manfaat va foyda nima ekanligini belgilay oladi. Bentam individlarga erkinlik berish bilan jamiyatga ko'proq foyda keltirish mumkinligini aytgan edi¹³. Shu bilan birga, Bentam fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi bo'lgan inson erkinligi va uning mezonlarini tahlil etishning uslubiy asoslarini ham rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Liberalizm asoschilarining ichida Jon Styuart Mill (1806-1873yy) alohida ajralib turadi. Millning fikricha, axloqiylikning oily darajada ifodalaninshi, bu ideal insoniylik bo'lib, bu fazilat boshqalarning baxtu saodati uchun jamiyatga fidoiylik bilan xizmat qilishdir. Bularning hammasi faqat erkin inson uchun taalluqlidir. Individ erkinligi shunday “farmonbardor yuksaklikka”, uni Mill siyosiy va huquqiy muammolarni hal etish kafolati, deb qabul qiladi. Erkinlik liberalizm uchun an'anaviy bo'lib, ular quyidagilardir: insoniy shaxs erkinligini saqlash va uning uchun shart-sharoit yaratish, erkinlik, tartib va taraqqiyot, optimal siyosiy tuzum, davlatning ta'sir qilish darajasining chegaralanganligi va hokozo¹⁴.

¹² История политических и правовых учений. – М.: НОРМА. 2003. –С.250-255.

¹³ Qarang: Антология мировой политической мысли. В 5 т. Т. I. – М.: Мысл, 1997. –С.558-559.

¹⁴ Qarang: История политических и правовых учений. – М.: ИНФРА-М, 1996. –С.470-471.

Mutafakkir talqiniga binoan, individual erkinlik insonning faqat o'ziga tegishli bo'lgan xatti-harakatlaridagi mutloq mustaqillikdir; bu shuni ifodalaydiki, insonning bu sohada o'ziga o'zi janob bo'lish imkoniyati va unda o'zining shaxsiy fikri asosida xatti-harakat qilishidir. Mill individual erkinlik doirasi sifatida, xususan, quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: fikrlash va fikr bildirish erkinligi, boshqa individlar bilan o'zaro harakatdagi erkinlik, hayotiy maqsadlarni tanlash va ulardagi erkinlik, shaxsiy taqdirni mustaqil belgilash. Bularning hammasi individning rivojlanishi, faoliyatini o'zi amalga oshirishi, shu bilan birga, tashqaridan avtonom shaxsga o'tkaziladigan tazyiqlarga to'siqlar qo'yilishidir.

Millning fikricha, shaxs avtonomligiga tahdid faqat "hukumatning mustabidligidan" emas, balki jamiyatdagi fikrlar mustabidligidan, ko'pchilikning fikri ozchilik erkinliklarini cheklash natijasida ham ro'y berishi ham mumkin¹⁵.

Individ erkinligi xususiy shaxs sifatida siyosiy tizim va uning faoliyatiga nisbatan birlamchidir. Bunday muhim holat davlatning kishilarni risoladagiday insoniy hayot qurish, uni yaxshilashga doir irodasi va qobiyatiga bog'liq ekanligini ochib beradi: jamiyat qnday bo'lsa, davlat ham shundaydir; jamiyat davlatning adolatli faoliyat yuritishi uchun mas'uldir. Munosib davlatning asosiy yashash sharti, bu – xalqning o'zini o'zi takomillashtirishi va insonlarning davlatni adolatli siyosat yuritishga doir o'zlari mo'ljallagan yuksak sifatga intilishi darajasiga muvofiq bo'lgan natijadir.

Mill fuqarolik jamiyatining asl mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: " Qanday boshqarilishidan qat'iy nazar, individum fikrlash va so'z erkinligiga, shuningdek, uyushmalar tuzish erkinligiga ega bo'lmagan jamiyatning o'zi erkin emas, faqat shunday jamiyatni erkin deyish mumkin: unda individual erkinlikning barcha turlari kimligidan qat'iy nazar, mazkur jamiyatning barcha a'zolarining hammasi uchun bir hilda mutloq ravishda mavjud bo'ladi. ...Agar jamiyat har bir insonning qanday yashashini boshqalar tomonidan majburiy belgilab berishga emas, balki, har bir

¹⁵ Миль Ж.С. О свободе. // Антология мировой политической мысли. В 5 т. Т. I. –М.: Мысл. 1997. –С.738, 743-744.

insonga o'zi eng yahshi deb tanlagan hayot tarzini kechirishiga imkon yaratib bersa, u faqat yutuqqa erishadi''¹⁶.

Millning liberalizm mafkurasi g'oyalari nafaqat individual erkinlik, balki davlat va jamiyatning tashkil etish mexanizimini demokratik va huquqiy asoslarda tashkil etishga yo'g'rilganligi bilan e'tiborlidir. Xullas, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat konsepsiyasi liberal siyosiy fikrlarning bosh siyosiy maqsadlaridan biridir. Hattoki, liberalizm asoschilari jamiyatning kuchli bo'lishi uchun davlat hokimiyati boshqaruvi faoliyati chegarasi va yo'nalishlarini aniq belgilash, ularning bajaradigan funksiyalari hajmi ko'payib ketmasligining tarafdori bo'lib chiqdilar. Masalaning ana shunday tarzda qo'yilishi esa tarixiy zaruriyat edi. Mill ilmiy merosi fuqarolik jamiyatining eng muhi jihatlarini o'rganish uslubuyoti sifatida ham hozirga qadar ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XIX asrning birinchi yarmida Fransiyada yangi shakllangan o'rta qatlamlar mafkurasi asoschilaridan biri Benjamen Konstantinning (1767-1830 yy) fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamiyat a'zolari erkinliklarini taminlash bilan bog'liq holda huquqiy davlat qurishga doir nazariy qarashlari hozirgi davr liberalizm g'oyalarini shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Aksariyat olimlar asosli ravishda Benjamen Konstan tomonidan umrining so'ngi yillarida yozgan asarlaridan kelib chiqqan xolda, uni "Yevropa liberalizmining ruhiy otasi" , deb ham ataydilar.

Konstan uchun davlat va jamiyat hayotini tashkil etishning shunday tartiboti tabiiylik kasb etishi zarurki, unga binoan davlat institutlari individual erkinlik, shaxs huquqining begonalashmasligi kabi asoslarga tayanib turuvchi piramidani tashkil etsin; ana shu holatdagina davlatning o'zi bir siyosiy butunlik sifatida mamlakatda shakllangan kishilarning turli jamoalari (yoki jamiyat ichidagi ittifoqlari) tizimini ifodalaydi.

Konstan inson huquqlari va erkinligi taminlanmasa, u jamiyatda mustaqil shaxs sifatida va erkin tafakkurlash asosida o'zini o'zi namoyon qila olishiga ishonmaydi. Kishilar o'zlarining individual xatti-harakatlari evaziga o'zlaridan yuqori turadigan

¹⁶ Миль Ж.С. О свободе. // Антология мировой политической мысли. В 5 т. Т. I. – М.: Мысль. 1997. –С. 738, 742-743.

qandaydir shaxslarning hukumronligisiz ham munosib hayot kechira olishga qobildirlar. Ana shu qarashlarga amal qilgan Konstan Jan Jak Russoning xalq suveriniteti ulug'vorligiga erishish to'g'risidagi tezislariga tuzatishlar kiritadi. Bu suverinitet chegarasi "xususiy shaxs va shaxsiy hayot mustaqilligi" boshlangan joyda tugashi lizim. Ana shunday doiraning mavjudligi hokimiyatni kuchayib ketmasligini tiyib turish va uning ustidan nazorat etishni jamiyat siyosiy-institutsoinal tuzilishining muhim prinsipiga aylantiradi.

Lekin, Konstan "davlat umuman kuchsiz bo'lishi lozim" , degan liberallar sirasiga kirmaydi. Bu sohada uning talablari boshqacha : hokimiyat institutlarining ijtimoiy foydali tomonlarini mustahkam mexanizmlar bilan aniq ravishda kengaytirish va belgilash lozim. Jamiyat uchun davlat hokimiyati hajmiga qanchalik zaruriyat tug'lsa, davlatga shunchalik huquqlar berish kerak bo'ladi. Shuningdek, quyidagi ko'rsatigan vazifalar asosidagi davlatning kuchsizlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur: "hukumat o'z sohasi doirasida chetga chiqishi kerak emas, ammo uning hokimiyati o'z sohasi yo'nalishida hech bir cheklanmasligi shart"¹⁷.

Jamiyat va jamoatchilik fikri tomonidan nazorat etiladigan davlat hokimiyati institutlari bilan bir qatorda matbuot erkinligi, shaxsiy erkinlik kafolati singari mezonlar tayanidigan huquq ham yuqori darajaga ko'tarilishi lozim. Konstan huquqning jamiyatni tashkil etishdagi o'rniga yuksak baho berib, huquq har qanday ko'rinishlardagi o'zboshimchalikka qarshi turishini ochib beradi. Huquqiy shakllar "insoniy jamiyatning go'yoki farishta – saqlovchi" , tashkiliy mohiyati, "insonlar o'rtasidagi munosabatlar uchun shart-sharoitlar yaratuvchi birdan-bir imkoniyat asosi" dir¹⁸.

Fuqrolik jamiyati sharoitida shaxsiy erkinlikni barcha huquqiy asoslar vositalari bilan ta'minlash va uni qattiq himoya qilishga kirishgan mutafakkirdan biri – Benjamen Konstanning vatandoshi – Aleksis de Tokvildir (1805-1859 yy). Uni dunyoga mashhur qilgan asarlar – "Amerikadagi demokratiya to'g'risida" va "Eski rejim va inqilob" nomli kitoblaridir.

¹⁷ Qarang: История политических и правовых учени. М.: ИНФРА – М, 1996. –С.477-478.

¹⁸ Qarang: Иситория политических и правовых учении. – М.: Норма,-С. 254-256.

Tokvil, asosan demokratiyaning nazariy va amaliy jihatlariga ko'proq qiziqdi. Bu sohani u o'z davrining eng ahamiyatli voqeyligi, deb qaradi. Shuningdek, Tokvil demokratiyani keng talqi qildi. U feodal tuzumga qarama-qarshi bo'lgan, shuningdek, oily hamda quyi tabaqlar o'rtasidagi (tabaqaviy yoki an'analar asosida shakllangan) chegarani tan olmaydigan ijtimoiy tuzumga o'tish g'oyasi bilan yashadi. Bu g'oya mazkur ijtimoiy tuzumni ifodalaydigan siyosiy shaxs faoliyati bilan ham uzviy bog'liq edi. Demokratiyaning negizi – tarixda qaror topishi kutilgan tenglik prinspidir. “Tenglikning asta-sekinlik bilan qaror topishi yuqoridan hokum etilgan va chetlab o'tib bo'lmaydigan zaruriyatdir. Bu jarayon quyidagi asosiy belgilar bilan aniqlanadi: u butun dunyoviylik va uzoq muddatlilik harakterini kasb etadi va har bir kun oz-ozdan rivojlanib boradi, unga erishish kishilarr doirasiga bog'liqdir...”¹⁹.

Shuningdek, Tokvil demokratik institutlar qatoriga matbout erkinligi, maslahatchilar sudi, sudning mustaqilligi kabilarni ham kiritadin. Tokvil yetuk demokratiya nazariyotchisi, bir vaqtning o'zida izchil liberal sifatida ana shu haqiqatni chuquq anglab yetdi va ularni liberalizmning asosiy qadriyatlarini sifatida ifoda etdi. Darhaqiqat, ana shu qadriyatlar xalqning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan davrida, ya'ni, tenglik oily maqom darajasiga ko'tarilgandagina oily qadriyat – erkinlikni to'liq, bekami ko'st taminlash imkoniyatlari tug'uladi²⁰.

XIX asrning birinchi yarmida fuqarolik jamiyatiga doir nazariy qarashlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan nems olimlaridan liberalizm mafkurasining yirik namoyondalari qatoriga - Fridrix Dal'man, Robrt fon Mol, Kerl Roteck, Karl Viker, Yulius Friobel kabilarni kiritish mumkin. Ularning qarashlari va faoliyati o'sha davrdagi Germaniya siyosiy va ruhiy iqlimiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Lekin, ularning ichida umumyeвроpa ahamiyatiga ega, liberal g'oyalari va asarlari bilan tanilgani Vil'gelim fon Gumboltdir.

Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) Immanuil Kant bilan ilk nems liberalizmi davrining mashhur namoyondasi sifatida shuhrat qozongan edi. Gumboldtning davlatga nisbatan umumiy nuqtai nazari – insoniy individualizm g'oyasidir. Unga

¹⁹ Токвиль А. Демократия в Америке. – М., 1992. –С.133-134.

²⁰ Qaang: Токвиль А. Старий порядок и революция. – М., 1991. –С.26-28.

muvofig, individualizmni davlat qanchalik egallashida emas, balki, davlat bilan bo'lgan nisbatda uni inson naqadar egallashi bosh demokratik mezon maqomida qabul qilinganligidir. Gumboldga binoan, asosiy vazifa “davlatda inson uchun ko'proq qulay bo'lgan holatlarni topish” dir. Insonlar o'rtasidagi turlicha va mustahkam munosabatlarda har tomonlama rivojlangan individuallik va o'ziga xoslik inson “Men” ining yaqqol namoyon bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Gumboldt ijtimoiy fanlar tomonidan XVIII asrda boshlangan jamiyat va davlatni diffrensatsiyalash (“fuqarolik jamiyati”) tarafdori edi. Bu diffrensatsiyalash chegaralari esa quyidagicha o'zaro farqlanishlardan iborat bo'ldi: 1) milliy muassasalar tizimi (tashkilotlar, ittifoqlar, individlar tomonidan quyidan shakllanadigan xar qanday uyishmalar) bilan davlat institutlari va xizmati o'rtasidagi farqlanish; 2) “tabiiy va umumiy huquq” bilan bevosita davlat tomonidan tuziladigan pozitiv huquq o'rtasidagi farqlanishlar; 3) “inson” bilan “fuqaro” o'rtasidagi farqlanishlar .

Davlat va jamiyat o'rtasida chegaralar o'tkazar ekan, Gumboldt ularga teng qimmatga ega bo'lgan o'lchovlar sifatida qaraydi. Uning nuqtai nazaricha, jamiyat davlatdan ahamiyatliroqdir, inson esa siyosiy ittifoq (“davlat”) a'zosi (shaxs) – fuqaroga nisbatan ancha kattaroq va ahamiyatliroqdir. Ana shu sabablarga binoan, “tabiiy va umumiy huquq”pozitiv huquqning yagona asosi sifatida davlat qonunlarini ishlab chiqish va qabul qilishda amal etishi lozim bo'lgan boshlang'ich ko'rsatmadir.

Davlatning yashash maqsadi – jamiyatga xizmat qilishdir: “davlat hokimiyatining haqiqiy hajmi jamiyat farovonligi uchun barcha imkoniyat darajasida qilishi kerak bo'lgan ishlardir”. Gumboldt mavhum “jamiyat”tushunchasida jamiyatni alohida-alohida tashkil etuvchi individni anglashga intiladi. Undan shunday tezis kelib chiqadi: “davlat tuzumi yagona maqsad emas, balki u insonning rivojlanishi uchun bir vositadir”²¹, xolos.

Gumbolt Yevropa ilk burjua liberalizmi uchun xos bo'lgan “minimal davlat” konsepsiyasi tarafdori edi. U fuqarolarning ijobiy farovonligi uchun davlat

²¹ Qarang : История политических и правовых учений. – М.: ИНФРА – М, 1996. –С.483-484.

murabbiyligi g'oyasiga butunlay qarshi edi. Ya'ni, u davlatning ularning axloqi, sog'lig'i, turmush tarzi, sshaxsiy baxtiga aralashishini ma'qul ko'rmas edi.

Gumboldtga binoan davlat funksiyalarining faolligi doirasi keskin qisqargan edi. Uning sababini u quyidagicha izohlaydi: kishilarni yagona ijtimoiy uyushmaga birlashtirish cheksiz va turli-tuman insoniy kuch va faoliyatlarni yaratadi. Ana shunday sharoitlarda boy qiyofalar, to'laqonli harakterlar rivojlanadi; unda o'z qadr-qimmatiga egaligidan faxrlanadigan ichki g'ururga va erkinlikka dohil insonlar shakllanadilar. Davlat esa o'z tabiati va o'tmishidan kelib chiqib, betakrorlik, turli-tumanlik, har qanday ziddiyatlar va mojarolarga betoqatlik bilan munosabatdagi oily hokimiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Chunki, u ijtimoiy uyushishga xos, individualliklar, manfaatlar, irodalar, turlicha fikrlar, hatti-xarakatlarning cheksiz turli-tumanligini noxush qabul qiladi.

Davlat individ va millat uchun kishilarga otalarcha g'amxo'rlik va homiylik qilish, paternalistik vazifalarni o'z zimmasiga olgan paytidan boshlab jiddiy xavfga aylanadi. Gumboldt shunga ishonadiki, hukmdorlarning (hukumat, mansabdorlar) g'amxo'rliigi va homiyliigi hisobiga tarbiyalanayotgan fuqarolarning individ sifatidagi irodasi va energiyasi bo'shashadi, ularning o'z hayotlarida paydo bo'lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlari pasayadi, qiyinchiliklarni o'z kuchi bilan yengishni gumon ostiga qo'yadi.

Davlat tomonidan doimiy yordam kutib turish oqibatida insonning faoliyatsizlik darajasi oshib boradi, u esa o'z o'rnida qashshoqlikka olib keladi. Fuqarolik ruhi ham so'nib boradi. "Agar har bir odam o'ziga nisbatan davlatning g'amxo'rliigi va yordamiga umid bilan yashasa, unda u, albatta, o'zining hamfuqarolari taqdiri to'g'risida kamroq o'ylaydigan bo'lib qolishi shubhasizdir. Bunday holat insoning o'z yaqinlariga bo'lgan hamdardligini yo'qotadi, kishilarni o'zaro bir-biriga yordamlashishga tayyor turish kayfiyatini ham yemiradi. Aqalli, shuni aytish mumkinki, insonda barcha narsa o'ziga bog'liq ekanligini seza oladigan ong yuksalgan jamiyatda o'zaro ijtimoiy ko'mak unumli darajaga ko'tariladi"²².

²² Гумбольдт В. Опыт установления пределов государственной деятельности. // Антология мировой политической мысли. В 5 т. Т. 1. – М.: Мысль 1997. –С.631-632.

Nemis mutafakkiri Gumboldtning g'oyalari hozirga qadar o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Gumboldt tomonidan jamiyatni ilmiy tahlil qilish, fuqarolik jamiyatining mezonlarini belgilashga doir uslubiy yondashuvlar siyosiy fanlarning tadqiq etish vositasi sifatida yashab kelmoqda.

1.2. Fuqarolik jamiyati borasida zamonaviy yondashuvlar

Fuqarolik jamiyati masalalarini o'rganishda klassik yondashuvlar barobarida, albatta zamonaviyyondashuvlarni ham o'rganish zarur. Zero, bu hodisa asrlar osha o'zining klassik mohiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, uning ta'rifi va tuzilmasi davr o'tishi mobaynida o'zgacha tus olmoqda. Fuqarolik jamiyatiga nisbatan bildirilayotgan ilmiy munosabat uning o'zi singari murakkablashayotgani tufayli fuqarolik jamiyati ilmiy doiralarda ham davr, ham mohiyat nuqtai nazaridan qayta-qayta tafakkur chig'irig'idan o'tkazilmoqda.

Davr nuqtai nazaridan yondashilganda fuqarolik jamiyati postsotsialistik mamlakatlarda nisbatan yangi hodisa ekanligi qayd etilganligiga qaramay, aslida sharqiy Yevropada o'tgan asrning so'nggi choragi arfasida kommunistik tizimga qarshi g'oya sifatida alohida qiziqish uyg'otgan.

G'arbiy Yevropada esa fuqarolik jamiyatiga nisbatan qiziqish vaqti -vaqti bilan susayib turgan bo'lsa-da, aslida bu masala munozarali bo'lganligi tufayli hamisha jiddiy tadqiqotlarga yo'l ochgan. Agar klassik olimlar bu muammoni davlat hokimiyati bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishgan bo'lsa, fuqarolik jamiyatiga davlat qanchalik daxl qilishi mumkinligi zamonaviy tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biridir. J.Koen, E.Arato, D.Grin, M.Uoltser, L.Yakobson, E. Gellner singari olimlar fuqarolik jamiyati hodisasiga kompleks yondashgan bo'lsa, R.Dvorken, A.Seligman, M.Plattner singari olimlar fuqarolik jamiyatini liberalizm hamda demokratiya munosabati nuqtai nazaridan talqin etishgan. Fuqarolik jamiyati muammolari D.Bell, S.Uayt, S.Benhabib, N.Freyzer va hokozo olimlarning liberalizmga qarshi bo'lgan ta'limotlarida ham namayon bo'ldi. Fuqarolik jamiyati "barcha balolarning davosi" ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham g'arbda qaratilgan tadqiqotlardan o'rin olgan bo'lib, A.Seligman, M.Uoltser,

CH.Teylor kabilarni ular qatoriga qo'shish mumkin. D.Grinning guvohlik berishicha fuqarolik jamiyatining tabiati, uning liberalizm bilan munosabati F.Xayek va M.Novaklar tadqiqotlaridan keng o'rin olgan.²³

Fuqarolik jamiyatiga bo'lgan qiziqish o'tgan asirning ikkinchi yarmida g'arbda, ayniqsa, kuchli bo'lganligi sabab Ikkinchi jahon urushidan oldin davlatning fuqarolarning hayotiga aralashuvi nafaqat totalitar tizimdagi kabi keng tarqalganligiga borib taqaladi. Urushdan keying davrdagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor fuqaroviy huquqlarni qayta tafakkur qilishga qaratildi. Fuqaroviylik ijtimoiy mazmun bilan boyigan holda davlatdan ma'lum bir xizmatlarni olish fuqaro uchun yuridik jihatdan mustahkamlangan huquqqa aylangan edi. Bunday o'zgarishlar o'z navbatida boqimandalik kayfiyatini kuchaytirgan holda, mehnat va raqobat muhtiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. SHu tufayli bir qator liberalizm nazariyotchilari bozorning ta'sirini oshirishiga qaratilgan g'oyalarni ilgari surgan holda fuqarolik jamiyati tadqiqotlariga qaytadan turtki berdilar. XX asr davomida fuqarolik jamiyatining quyidagi transformatsiyasi yuz berdi: asr boshida u inqilob tajovuz qilayotgan davlat uchun qalqon vazifasini o'tagan bo'lsa, asr yakuniga kelib u shaxs erkinligini davlatning o'ta qattiq nazortidan asrash omiliga aylandi.²⁴

Tadqiqotlar orasida fuqarolik jamiyati hodisasining mohiyatiga, aniqrog'i, uning ta'rifiga takror-takror murojaat etilganligini qayd etish mumkin. Zero, bu hodisa o'ta murakkab bo'lganligi tufayli unga nisbatan bir yoqlama yondashuv bilan uning tub mohiyatini to'liq qamrab olish mumkin emas. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi ilmiy munozara yangi g'oya va tushunchalarni qamrab olish bilan yangidan-yangi mualliflarni bu mavzuga jalb etdi. Tadqiqotchilar qarashlarining turlichaligi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farqlanishsa-da, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, uning tuzilishi, fuqarolik hissini tarbiyalash muammolariga nisbatan qiziqishlarida umumiylik mavjud.

²³ Д.Грин. Возвращение в гражданское общество. Социальное без участия государства/Пер. с англ. М.:Новое издательство, 2009. –С.34.

²⁴ Баранов Н.А. Трансформации современной демократии: Учебное пособие. СПб.: Балт. Гос. Техн. Ун-т. 2006.-С.74.

Fuqarolik jamiyati tushunchasining g'arbda o'ta ommalashib ketish sabablaridan yana biri unga berilgan ta'rif borasida kelishuvning yo'qligiga borib taqaladi. Bu hodisa qariyb uch asrdan beri o'rganilayotgan bo'lishiga qaramasdan, uning yagona konsepsiyasi, boshqacha aytganda "yurisprudensiyada aksioma sifatida qabul qilinadigan darajadagi metanazariyasi" xanuzga qadar shakllantirilgani yo'q.²⁵ Faqatgina liberalizm bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi aloqadorlikni tan olish bu boradagi tadqiqotlarning umumiy jihatini ifoda etgan yagona nuqta hisoblanadi. Ba'zi olimlar bu muammo allaqachon eskirib ketganligini ta'kidlashadi. Shuning uchun bo'lsa kerak bu hodisa dastlab yuzaga kelgan va o'zining eng oily nuqtasiga yetgan Buyuk Britaniyada fuqarolik jamiyati tadqiqotlari universitetlar e'tiboridan chetda qolmoqda.

O'tgan asrning 70-yillarida g'arbda fuqarolik jamiyati kommunistik tizimga muqobil sifatida talqin etilgan bo'lsa, bu hodisa keyinchalik so'l tadqiqotchilar tomonidan erkin bozor munosabatlariga qarshi qo'yilgan. Buning birinchi sababi, olimlar fuqarolik jamiyatini kommunistik mamlakatlarda kuzatilgan totalitarizmga qarshi eng maqbul vosita sifatida ko'rishgan. Ikkinchi sababi esa, fuqarolik jamiyati dastavval vujudga kelgan paytda erkin mulkdorlar yetakchilik qilgan shaxar aholisining tashabbusi bilan vujudga kelganligiga borib taqaladi. Bu hodisa o'ta murakkab ekanligi u liberalizm va erkin bozor munosabatlarini taqozo qilishidan ham ko'rinib turibdi. Fuqarolik jamiyati tadrijiga e'tibor qaratilsa, u mulkdor huquqini kafolatlash, erkin bozor munosabatlari rivoji uchun qulay makon ekanligi namoyon bo'ladi. Bu yerda fuqaro erkinligining chegarasi tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biridir.

Individualizm bilan jamoaviylik dilemmasi fuqarolik jamiyatida navbatdagi diqqat talab etadigan masalalardan biridir. Ijtimoiy tafakkurning kommunitarizm deb nomlangan, asosan AQSHda rivoj topgan yo'nalishi bu jumboqni yechishga, ya'ni bu ikkilikdan qay biri birlamchi ekanligiga javob topishga harakat qiladi²⁶.

²⁵ Гражданское общество истоки и современность/ Научн. Ред. Проф. И.И. Кальной. СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс» 2000. –С.16.

²⁶ Kallscheuer, Otto. On Labels and Resons: The Communitarian Approach- Some European Comments-In: Toward a Global Civil Society/ Michiael Walzer, Ed. –Providence, Oxford: Berghaln Books, 1995. –С.133-145.

Fuqarolik jamiyati borasida xorijda yaratilgan zamonaviy tadqiqotlardagi yondashuv nuqtai nazaridan umumlashtirish mumkin. Boshqacha aytganda, tadqiqotlar :

- fuqarolik jamiyatining ilmiy ta'rifi;
- fuqarolik jamiyati va liberalizm munosabatlari;
- fuqarolik jamiyati va demokratiya;
- fuqarolik jamiyatida individ erkinligi, ixtiyoriylik va ko'ngillilik;
- fuqarolik jamiyati bilan davlat munosabatlari;
- fuqarolik jamiyati bilan bozor munosabatlari;
- fuqarolik jamiyati NNTlar hamjamiyati;
- fuqarolik jamiyatida omma manfaati va shaxs manfaati kabi jihatlarda tahlil etilgan.

Fuqarolik jamiyati borasidagi xorijiy ta'limotlar tadrijiga nazar tashlansa, dastlabki paytlarda asosiy yo'nalish hukmdorning vakolatlarini qisqartirish yoki jamiyat bilan hukmdor manfaatlar o'rtasidagi chegarani belgilashga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik inson huquqlari, ya'ni davlat va jamiyat munosabatlarida insonning mavqei masalalariga qaratilgan. Insonning ozodligi, uning erkin faoliyat yuritishi, unga oid huquq va erkinliklar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi borasidagi tadqiqotlar asosiy o'rin egalladi. Bunga AQSHda liberalizm negizida o'rnatilgan fuqarolik jamiyati misol keltiriladi. Liberalizmdagi ozodlik (Liberty), tenglik (Equality), mustaqillik (Freedom) va adolat (Justice) kabi tushunchalar amerikaliklarning asosiy qadriyatiga aylandi. Tenglik deganda barcha insonlarning siyosiy jihatdan tengligi va imkoniyatlarining tengligi tushunilgan. Buning ma'nosi shuki, "yaxshi" jamiyatda hukumat fuqarolarning o'z orzulari va qoboliatlari asosida o'z farovonliklarini yuksaltirish uchun kurashishga sharoit yaratar ekan, ayni vaqtda boshqa shaxslarning ham hayoti hamda mulkini qadriyat sifatida hurmat qilishlari uchun qonunlar tizimini ishlab chiqadi. Erkinlik deganda har kimda istaganini qilish emas, balki qonun doirasidagi erkinlik tushunilgan²⁷.

²⁷ Д. Грин. О'sha joyda.

Garchi liberalizm AQSHda, aniqrog'i, umuman, g'arbda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, uning asosiy tamoyili bo'lmish "tenglik" olimlar orasida hamisha munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Zero, fuqarolik jamiyatini tadqiq qilgan olimlar muntazm ravishda demokratik deb hisoblangan mamlakatlarda aynan tenglik tamoyilining buzilganligini qayd etganlar. Zamonaviy liberalizm namoyondalaridan angliyalik R.Dvorkinnig bu boradagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Uning fikricha, liberalizmning asosiy negizini tashkil qiluvchi tenglik konsepsiyasiga binoan qanday shior, qanday fikr, hatti-harakat yoki faoliyat tom ma'noda liberal ekanligini aniqlash mumkin. Tenglik nazariyasiga ko'ra siyosiy qarorlar ijtimoiy hayot to'g'risidagi individual qarashlarga asoslanmasligi kerak. Jamiyat kishilar ijtimoiy hayotning eng maqbul tarzi to'g'risida rang-barang qarashlarga ega bo'lib, hukumat ularning birortasiga ustuvorlik berar ekan, turlicha qarashlarni birdek tan olishni o'z zimmasiga oluvchi liberal davlat sifatida adolatni ta'minlay olmaydi. Chunki ko'pchilik tomonidan yoki kuchli guruh tomonidan ifoda etiladigan fikr qarashlar orasida eng ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan g'oyadir. Shu nuqtai nazardan R.Dvorkin liberalizmning eng kuchli taraflar o'rtasidagi kelishuv emasligi, har bir kishiga teng miqdorda imkoniyat yaratishi, bozor munosabatlarini taqozo etishi, vakillik demokratiyasini eng maqbul siyosiy huquqiy institute va mexanizm sifatida tan olishi, betaraflikka chaqirishini ta'kidlaydi²⁸.

Fuqarolik jamiyatini erkinlik orqali talqin etish D.Grin tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. O'z ta'limotida "O'zaro yordam jamiyatlari" ga asosiy e'tibor qaratgan olim ular qiyin kunlarni o'tkazish maqsadida ishchilar tomonidan o'z a'zolariga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan o'zini o'zi boshqaruvchi birlashmalar ekanligini ta'kidlaydi. Bu birlashmalarning falsafasi xayr-ehsonga asoslangan saxovatpeshalikdan keskin farq qiladi. Bu birlashmalar boshqalarga yordam berish maqsadida emas, balki zarur bo'lgan taqdirda o'z a'zolariga ko'maklashish mas'uliyatini zimmasiga oluvchi fuqarolar birlashmasidir.

²⁸ Дворкин Р. Либерализм// Современный либерализм: Ролз, Бераин, Дворкин, Кимлика, Сэндел, Тейлор, Уолдрон/ Пер. с англ. Л.Б.Макеевой. М., 1998. –С.46-67.

D.Grın o'zınig asosiy asari "Fuqarolik jamiyatiga qaytish" kitobiga baho berar ekan, " bu asar erkin jamiyatning ahloqiy jihatlari borasidagi go'yalarni aniqlashtirish va rivojlantirishdan iborat" ekanligini qayd etadi.Fuqarolik jamiyatini erkinlik tamoyili orqali talqin etgan D.Grın shunday yozadi: "Erkinlik cherkovning davlatdan ajratilishi oqibati ham, qonun ustuvorligi ham, xususiy mulkchilik ham, sudlarning mustaqilligi yoki bizning jamiyatimizga xos bo'lgan minglab institutlar va qoidalar ham emas; erkinlik ularning barchasi mavjudligining natijasi, aniqrog'i, u bizning jamiyatimizda hokimiyatning qattiq markazlashuviga olib keladigan markazlar mavjud emasligining natijasidir".²⁹

L. Yakobson³⁰ o'zining "Fuqarolik jamiyatining kelajagi: tadqiqot va loyihalashtirish", deb nomlangan maqolasida fuqarolik jamiyati borasidagi zamonaviy tadqiqotlarni ikki turga ajratadi. Ularning birinchi turi sof faktlarga asoslangan "obektivlik"dan iborat³¹ bo'lsa, ikkinchi turi ijtimoiy "faollik"ka bag'ishlangan tadqiqotlardir³². "Obektivlik" tarafdorlarini kelajak unchalik qiziqtirmaydi, ular aniq o'rnatilgan va sinovdan o'tgan hodisalar haqida yozishni ma'qul ko'rishadi, bu esa o'z mohiyatiga ko'ra o'tmishga dahldor voqea-hodisalardir. "Faollik" tarafdorlari uchun esa mavjud voqelik kelajakka harakat qilish uchun asos va resurslarni izlab topish uchun xom ashyodir. L.Yakobson turli g'arb olimlarining fikrlarini tasniflash bilan birga fuqarolik jamiyati borasida o'ziga xos fikrlarni ham bayon etadi.Unga ko'ra, qayerda siyosatchilar o'z xalqini o'zini o'zi tashkil etuvchi tuzilmalar koalitsiyalari nomidan boshqarmasdan, balki uni qo'y suruvi singari "boqar" ekan , demokratik tamoyillar ko'ngilli uyushmalarning kundalik hayotida emas, balki saylov qonunchiligi aks etgan "qog'ozlar"da qolib ketadi. Bu holatda demokratik tamoyil tarafdorlari asosiy g'oyalarning mag'lubiyatini tan olish yoki qarshi turishdek murakkab tanlov oldida qolishadi.

²⁹ Д. Грин. О'sha asar. –В.26.

³⁰ Лев Ильич Якобсон. Davlat Universiteti-Iqtisodiyot Oliy Maktabining birinchi prorektori, fuqarolik jamiyati va notijoriy sektor tadqiqotlari Markazi Ilmiy rahbari.

³¹ Salamon.L.M. Anheier H.K., List.R., Toepler S., Sokolowski S.W. and associates. Global Civil Society: Dimensions of the Non –profit. Baltimore MD, USA: Johns Hopkins Comparative Nonprofit Sector Project, 1999; Global Civil Society: Dimensions of the Nonprofit Sector,Volume Two./ Salamon L.M., Sokolowski S.W and Associates.- Blommfield: Kumarian Press, 2004.

³² Клеман К.,Мирясова О; Демидов А., От обывателей к активистам: Зарождающиеся социальные движения в современной России. М.: Европа, 2010.

Tadqiqotlar orasida fuqarolik jamiyatini adolat o'rnatishning muhim omili ekanligi to'g'risidagi talqinlar uchraydi. Jumlada, amerikalik faylasuf Jon Roulz o'zining "Adolat nazariyasi" (The ory of Justice) asarida adolatning ikki tamoyilini ajratadi. Unga ko'ra adolat, birinchidan, fuqarolik jamiyatida asosiy erkinliklar tizimiga nisbatan barchaning teng huquqqa egaligini anglatadi. Ikkinchidan esa ijtimoiy va iqtisodiy notenglik sharoitid'a huquqiy jihatdan tenglik imkoniyatlarning barcha uchun ochiq va baravar ekanligini anglatadi.³³

Zamonaviy g'arb ilmiy adabiyotlarida fuqarolik jamiyati tarkibidagi uyushmalarning ko'ngilli ekanligi borasida yakdillik mavjud. Sh.Benhabib, E.Arato, J.Koen, M.Uoltser kabi olimlar tomonidan fuqarolik jamiyati deganda ko'ngilli uyushmalar, cherkovlar hamda boshqa jamoat birlashmalari nazarda tutiladi.³⁴

Bunday tuzilmalar mahalliy darajada qarorlar qabul qilish huquqiga ega va bu jarayonda davlatorganlari tomonidan nazorat qilinmaydi.³⁵

Ixtiyoriylik fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi asosiy omil ekanligini M.Uoltser ham ta'kidlaydi. Unga ko'ra, fuqarolik jamiyati tom ma'noda ixtoyoriylik asosida tashkil bo'ladigan hodisa bo'lib, oila va davlat institutlari fuqarolik jamiyati tomonidan inkor etiladi. Buyerda oila a'zolarining ko'ngilli bo'la olmasliklari uchun oila inkor etilgan bo'lsa hamda har qancha legitim bo'lsa-da davlatning o'z fuqarolariga tazyiq o'tkazishi ehtimoli davlat institutlarining inkor etilishiga olib kelgan³⁶.

L. Lamaski shunga yaqin fikirni e'tirof etgan holda "fuqarolik jamiyati liberalizm tamoyillari asosiga quriladigan ko'ngillilar makoni", ekanligini ta'kidlaydi. M.Uoltserdan farqli o'laroq L.Lamaski oila, qo'shnilar, do'stlar, turli klublar, ta'lim va filantropik tashkilotlarni fuqarolik jamiyati tarkibiga qo'shadi.

³³ Ролз Дж. Теория справедливости. Новосибирск, 1995.-С.66.

³⁴ Benhabib S. Critique, Norm and Utopia. New York: Columbia University Press, 1986. Cohen J., Arato A. Civil Society and social Theory. Cambridge:MIT Press. 1992.

³⁵ Bell D. American Exceptioalism Revised: The Role of Civil Society // Public Culture.N 95.1989:38-56- betlar.

³⁶ Walzer M. Equality and Civil Society. In: Altemative Conceptions of Civil Society. Ed by S.Chambers and W. Kymlicka Princeton: Princeton Univ. Press. 2002. -С.64.

Ammo, ixtiyoriy tashkil topgan uyishmalar unga ko'ra fuqarolik jamiyatini tashkil etadi³⁷.

Ko'ngillilik va ixtiyoriylik fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisidir. Fuqarolik jamiyati tanlash, jamoaviylik va ishtirokning erkinligiga asoslanadi. Klassik liberalizm namoyondalaridan biri M.Uoltser "Fuqarolik jamiyati doirasida shaxsiylik (indivuduallik) turli guruhlariga birlashishi yoki ularni tark etishi mumkin. Guruhlar doirasida esa anashu shaxslar o'ziga o'xshaganlar bilan o'zaro kuchli yoki zaif darajadagi aloqadorlikni o'rnatishlari mumkin. Ular o'z vaqt va kuchlarini guruhni tashkil etish, jamoaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish, jamg'armalar tashkil etish, shuningdek yangi a'zolari jalb etish bilan mashg'ul bo'lishadi", deb yozadi³⁸.

Fuqarolik jamiyati tarkibini taxlil etgan kanadalik olim U.Kimlika boshqa olimlardan farqli o'laroq oila, bundan tashqari cherkovlar, ittifoqlar, etnik uyushmalar, kooperatsiyalar, atrof-muhitni ximoya qilish tashkilotlari, qo'shnilar, ko'makchi guruhlar hamda siyosiy partiyalrni fuqarolik jamiyatining tarkibiga kiritadi.³⁹

Ixtiyoriylik yoki ko'ngillilik fuqarolik jamiyatini shakillantiruvchi omillarning asosi sifatida tan olinar ekan, oilani fuqarolik jamiyati tarkibiga qo'shish muxim axamiyatga egadir. Sh. Myuffe va M. Uoltser bir qancha fikrlarni e'tiborga olib o'z qarashlarini quyidagicha aniqlashtiradilar: "Demokratik siyosatni voqelikka aylantiradigan fuqaroviylik faqatgina fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tarmoqlarida tarbiyalanishi mumkin. Bunday tarmoqlar ixtiyoriy bo'lganligi uchun, uning tarkibidagi a'zolar shu tarmoq yoki uyiashma doirasida qabul qilingan qoidalariga bo'ysunib yashashni istamasliklari jamoa a'zolari tomonidan qandaydir qonuniy jazo bilan emas, balki oddiygina norozilik bilan qarshi olinadi. Ifoda etilgan ana shu norozilik uyishma ichidan, ya'ni oila a'zolari, do'stlar, xamkasblar va maslakdoshlar tomonidan ifoda etilganligi uchun davlat beradigan jazoga nisbatan ta'sirliroqdir.

³⁷ Lamasky L.E. Classical Liberalism and Civil Societiy. In: Altirnative Conceptions of Civil Society. Ed. By. S. Chambers and W.Kymlicka. Princiton: Princiton Univ. Press. 2002. –C.64.

³⁸ Walzer M. O'sha joyda.

³⁹ Kymlicka W. Politics in the Vernakular. Nationalism, Multiculturalism and Citizenship. –C.301-302.

Aynan ana shu yerda “insonning shaxsiyati, irodasi va tom ma’noda fuqaro bo’lishga qodirligi shakllanadi, ixtiyoriy o’zini o’zi tiyish va o’zaro xamjixatlik aynan mana shu sharoitda “tarbiyalanadi”⁴⁰.

S.CHeymbers fuqarolarning ixtiyoriy ravishda turli tashkilot va uyushmalarga a’zo bo’lishlari fuqarolik jamiyatining davlatdan ma’lum darajada uzoq masofada bo’lishini taqozo etishini ta’kidlaydi. Fuqarolik jamiyatiga daxldor masalalarni sanab o’tar ekan S.CHeymbers shunday yozadi: “Oila fuqarolarning siyosiy pozitsiyasini belgilashda asosiy omil bo’lganligi bois fuqarolik jamiyati tarkibiga kiritilgan. Oila madaniyatni va demakki, yetakchilikni o’zgartirishga qodir bo’lgan kuchdir. Cherkovlar, klublar, universitetlar, uyushmalar, madaniy instutlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va boshqalar ham fuqarolik jamiyati tarkibiga kiruvchi boshqa elementlar sifatida e’tirof etiladi. Ular o’z holicha ixtiyoriy tarzda emas, barqarolikni saqlashga qaratilgan g’oyalarni qo’llab-quvatlaganliklari uchun fuqarolik jamiyati tarkibiga kiritilgan⁴¹.

Bugungi kunda AQSH va Yevropa siyosiy-huquqiy hayotida muloqotga asoslangan demokratiyaga jiddiy qiziqish mavjud. Fuqarolik jamiyatining ichida manfaatlar qay tarzda shakllanishiga qaratilayotgan e’tibor buning asosiy sababidir. Omma manfaati bilan shaxsiy manfaat chegarasini belgilash, tenglikni saqlash , yuzaga keladigan muammolarni muloqot vositasida bartaraf etishda, ko’pchilik tomonidan beriladigan qarorni mantiqan asoslashda inson tafakkuri qay darajada ta’sir ko’rsatishi nazariyotchilarni qiziqtiradigan asosiy masala xisoblanadi. Boshqacha aytganda, gap shaxsiy doirani tark etib fuqarolik jamiyati doirasida muloqot amalga oshadigan maydon darajasiga chiqmoqda. O’tgan asr so’ngiga kelib bu muammo, ayniqsa, muxim axamiyat kasb eta boshladi. Zero, g’arbiy demokratiyalarda fuqarolar darajasida davlatga nisbatan bildiriladigan e’tiroz shu qadar kuchaydiki, buni faqt fuqarolik jamiyati talablari asosida ifodalash mumkin.

⁴⁰ Walzer M. The Civil Society. In: Dimensions of Radical Democracy: Pluralism, Citizenship and Community. Mouffe, Chantal, ed. London, Roudledge. 1992. –C.104.

⁴¹ Chambers S.A Critikal Theory of Civil Society. In: Alternative Conceptions of Civil Society. Ed. By S.Chambers and W. Kymlicka.Princeton: Princeton Univ. Press.2002. –C.90-91.

Nodavlat notijorat tashkilotlari yoki “uchinchi sektor deb nomlangan” soxaning rivoj topishi bilan fuqarolik jamiyati tushunchasi yangi mezonlarda talqin etila boshladi . Nodavlat notijorat soxasi axolining shunday guruhi va tashkilotlar majmuasini anglatadiki, bunday tashkilotga a’zolik yoki unga rahbarlik qilish shaxsiy daromadni ko’paytirishga qaratilmaydi. “Notijorat” atamasining mazmuni bunday guruh yoki tashkilot faoliyati natijasida tipiladigan daromad uning a’zolari o’rtasida taqsimlanmasdan, guruh yoki tashkilot maqsadlarini rivojlantirishga yo’naltiriladi. Dastlabki ikki sektor davlat institutlari va xususiy korxonalar hamda kompaniyalardan tashkil topgan. K.Makkartbi va V.Xotkinson tomonidan uchinchi sektor oila va biznes sohasi xamda hukumat oralig’idagi faoliyat sifatida baholanadi. Ana shu konsepsiya doirasida nodavlat sektori, ko’ngilli faoliyat, uchinchi sektor, notijoriy sektor xaqida so’z yuritiladi. Umumjamoalar manfaati yo’lida xizmat qilish bunday tashkilotlarning barchasi uchun umumiy bo’lgan xususiyatdir. Bunday tuzilmalarning asosiy vazifasi axolining erkinligi va hokimiyat vakolatlarini imkon qadar kengaytirish, ijtimoiy islohotlarga, ijtimoiy himoyani rivojlantirishga aholini kengroq jalb etishdan iborat.

Fuqarolik jamiyati va uchinchi sektor tashkilotlari faoliyati muammosiga faqatgina post-sotsialistik modernizatsiyani amalga oshirayotgan mamlakatlarga emas, balki barqaror demokratik tizimga ega bo’lgan mamlakatlarda ham qiziqish ortib bormoqda. Murakkab muammolarni samarali hal etayotgan, biroq o’zlari foyda ko’rmayotgan nodavlat tashkilotlari faoliyatiga nazar tashlagan holda ko’pgina tahlilchilar insonga xos xudbinlik va individualizm bilan mavhum jamoaviylik jumbog’ini yechishga xarakat qiladilar. Bu bilan fuqarolik jamiyatiga nisbatan yondashuvlarning falsafiy jihatlari bilan birgalikda sotsiologik jihatlari ham namoyon bo’ladi.

Zamonaviy yondashuvlarni umumlashtirgan holda takidlash mumkinki, fuqarolik jamiyatiga nisbatan yondashuvlar turli jihatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Tadqiqotlarni davriy nuqtai nazardan ajratadigan bo’lsak, fuqarolik jamiyatining klassik jihatlari aks ettirgan zamonaviy tadqiqotlar muammoning mohiyatini atroflicha ochib berish maqsadida uning tarixiy jihatlari aks

ettirganligiga guvoh bo'lish mumkin. Zero, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini o'rganishda, albatta, uning ilk davrlarini, aniqrog'i, o'rta mulkdorlar qatlami, shaharliklar, "byurger" lar vujudga kelgan davrni, fuqarolik jamiyati vujudga kelishining konseptual asoslariga murojat etish maqsadga muvofiq. Aynan tarixiy va zamonaviy jihatlarini qiyosiy tahlil etishgina bugungi murakkab jarayonlarda fuqarolik jamiyatini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati borasidagi zamonaviy tadqiqotlarda ta'riflarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Agar uch asr ilgari fuqarolik jamiyatiga berilgan ta'rif bilan bugungi ta'riflarni solishtiradigan bo'lsak, ular orasida jiddiy farq borligi ko'zga tashlanadi. Ilgari davrlarda fuqarolik jamiyati oldida turgan asosiy maqsad mutloq hokimiyatga ega bo'gan qirol hokimiyatini cheklash, o'rta mulkdorlar qatlami manfaatlarini aniqlashtirish va vakillik hokimiyatini o'rnatishga qaratilgan, shu asosda inson erkinligi talqin etilgan bo'lsa, bugungi kunda berilayotgan ta'riflarda fuqarolik jamiyatida inson erkinligi masalasi muoamo tarzida qo'yilmaydi. Erkinlik maslasi allaqachon hal etilgan bo'lib, u shubha ostiga olinmaydi va fuqarolik jamiyatining mezonini zamon talablariga mos ravishda o'zga yo'nalishda rivoj topadi. Hatto bugungi kunda fuqarolik jamiyatiga ilmiy ta'rif berish masalasi, qaysidir ma'noda g'arbdagi tadqiqotlarning dolzarb mavzusi ekanligini qayd etish qiyin. Zero, to'laligicha amaliy faoliyat bilan shug'ullanuvchi uchunchi sektorning vujudga kelishi fuqarolik jamiyatiga beriladigan ta'rifning mezonini o'zgartirib yuborganligiga guvoh bo'lish mumkin. Zamonaviy yondashuvga ko'ra, fuqarolik jamiyati uchinchi sektor bilan aynan talqin etilar ekan, bu holatda fuqarolik jamiyatiga bo'lgan yondashuv ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bu hodisaga chuqurroq yondashish bilan masalaga oydinlik kiritish mumkin. Ma'lumki, g'arb mamlakatlarida uchinchi sektorning roli benihoya yuksakligi bilan ajralib turadi. Bu sektor ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi muammolarni hal etishda shu qadar samarali faoliyat yuritadiki, uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'zni hech kimni shubhaga solmaydi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining o'zi tobora amaliy xarakter kasb etib borayotganligini, boshqacha aytganda uchinchi

sektor o'ziga xos faoliyat yo'nalishi, hatto kasb holiga kelib qolganligini namoyon etadi.

Ko'rinib turganidek, fuqarolik jamiyatining mohiyatini talqin etish tobora falsafiy masalaga aylanmoqda. Buesa fuqarolik jamiyati nazariyasi uning amaliyotidan tobora uzoqlashi borayoganligini namoyon etmoqda. Bugungi kunda AQSHda fuqarolik jamiyatining nima ekanligi to'g'risidagi savol faqatgina shu sohaning nazariyasiga ixtisoslashgan olimlar uchun tushunarli bo'lishi mumkin. Zero, fuqarolik jamiyati amaliyoti ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, ijtimoiy ta'minot, mehnat munosabatlari, bandlik, madaniyat, diniy hamda etnik munosabatlar, saylovlar, ommaviy axborot vositalari va hokazo sohalarda son-sanoqsiz NNTlarning sof amaliy xarakterdagi faoliyatini ifoda etmoqda. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatiga nisbatan klassik yondashuv bilan zamonaviy yondashuv aloxida mavzu hisoblanadi.

Olimlar qarashlari orasida fuqarolik jamiyatiga tahdidlar bo'lib ko'rib o'tiladi. Jumladan, J.Kinga ko'ra ilmiy-texnik taraqqiyot asta-sekin bandlikka ta'sir ko'rsatgan holda ommaviy ishsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holatda jamiyat ikki siyosiy yo'ldan birini tanlashga majbur bo'ladi. Birinchisi, barchani ish bilan ta'minlashga intilayotgan davlat o'rnini avtoritar kapitalizm egallaydi va turli dasturlar vositasida aholi bandligini ta'minlaydi, aholi bo'lsa hokimiyatdan mahrum bo'ladi. Ikkinchi yo'l demokratik harakterdagi postkapitalistik jamiyat bo'lib, unda aholi maosh uchun emas, balki o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy foydali faoliyat turlaridan birini tanlagan holda ko'ngilli faoliyat bilan mashg'ul bo'lishadi. Tadqiqotlarga ko'ra bu sharoitda aholida vujudga keladigan bo'sh vaqt demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishga xizmat qilishi kerak. Bo'sh vaqt davlat, kapitalistik korparatsiyalar yoki ularga dahldor kasaba uyushmalari tomonidan emas, balki o'zaro tenglik asosida tashkil etiladigan o'zini o'zi boshqaruvchi kichik institutlar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak.⁴²

Yangi asr bosag'asida post-sotsialistik dunyoda demokratiyaning tarqalishi fuqarolik jamoyati bilan murakkab shaklda bog'liqligi ba'zi tadqiqotchilar tomonidan

⁴² Кин Дж Демократия и гражданское общество/ Пер. С англ. М., 2001. –С.151.

qayd etilgan. Bunday mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining soddalashtirilishi, aniqrog'I uning demokratiya bilan aynan talqin etilishi kuzatilib, u ziddiyat va keskinlikka sabab bo'lgan. Natijada esa unga nisbatan sovuq munosabat shakllangan. Bunday jamiyatlarda fuqarolik jamiyati darajasida millatning demokratik tamoyillar asosida jipslashuvi emas, balki qarama-qarshilik yuzaga kelgan. Birqator mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari demokratiyani rivojlantirish va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan bormay, mavjud turmush tarziga moslashganliklari kuzatilgan. Bu, o'z navbatida, post-sotsialistik demokratiyaning hali pishib yetilmaganligini namoyon etadi. Bunga alohida e'tibor qaratgan tadqiqotchi G.I.Vaynshteyn "postkommunistik mamlakatlarda fuqarolik jamiyatlari institutlarining keying rivoji ularni ommani tarbiyalovchi o'ziga xos maktab ekanligi to'g'risidagi xulosani jiddiy qayta ko'rib chiqish uchun asoslar yetarli ekanligi"ni namoyon etayotganligini ta'kidlaydi.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda fuqarolik jamiyatlarga bo'ladigan tahdidlar borasida ham rang-barang fikrlar ilgari suriladi. Jumladan, L.Uaytxet hamda J.Pirs kabi olimlarning tadqiqotlariga tayangan G.I.Vaynshteyn nodemokratik va nofuqaroviy elementlar, jumladan mafiya hamda jinoiy to'dalar, milliy va shovinistik uyushmalar, radikal ekstremistik tashkilotlar, diniy aqidaparastlar ham, asosan, ixtiyoriy asosdagi tuzilmalar bo'lsalar-da, fuqarolik jamiyatiga zid ekanligini ta'kidlaydi.⁴³ Buni olimlar "nofuqarolik jamiyati" deb atagan holda fuqarolik jamiyatiga oid har bir sohaning aksi ekanligini qayd etishadi.

Tadqiqotlarda fuqarolik jamiyatining geografik kesimdagi talqini ham uchraydi. Yuqorida nomi zikr etilgan E.Gellner o'zining "Erkinlik shartlari" asarida fuqarolik jamiyati islom va konfutsiya-buddaviylikka asoslangan mamlakatlar emas, balki Shimoliy Atlantika mintaqasi mamlakatlariga xos ekanligini ta'kidlar ekan, yuqoridagi mintaqalarda fuqarolik jamiyati butunlay mavjud emasligini ta'kidlaydi. Ayni vaqtda, u shariat ahkomlarini zo'rlik bilan singdirish ham, islomga nisbatan soxta liberal ko'rinishdagi bepisandlik ham fuqarolik jamiyati ruxiga to'g'ri

⁴³ Вайнштейн Г.И. Закономерности и проблемы посткоммунистических трансформаций // Политические институты на рубеже тысячелетий. Дубна, 2001. –С.167

kelmasligini qayd etadi.⁴⁴ Bu mamlakatlarda shaxs bilan hokimiyat, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat kishining muxtor faoliyatini nazarda tutmaydi.

Garchi fuqarolik jamiyati birinchi navbatda g'arb tamadduning mahsuli bo'lsa-da, bu mintaqada ham ziddiyatli misollar uchraydi. Bu hodisani atroflich o'rgangan amerikalik sotsiolog R. Pantem Italiyada ijtimoiy hayot tarzinig fuqaroviylik darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ikki turi mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan, Italiya shimolida o'zini o'zi boshqarishga asoslangan fuqarolik jamiyati mavjud bo'lsa, janubda demokratik tamoyillarga munosabat ijobiy emas. Janubda fuqaroviylik ongi past darajada bo'lganligi tufayli vakillik hokimiyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.⁴⁵ Ayni vaqtda Osiyoning bir qator mamlakatlarida fuqarolik jamiyati milliy an'analar bilan hamohang ravishda rivojlanmoqda. Liberal qadriyatlar sharq jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotiga jadallik bilan kirib bormoqda va mahalliy aholinig hokimiyatga ko'r-ko'rona bo'ysunishidan ularning ijtimoiy faolligiga, fuqaroviy ongginging o'sishiga xizmat qilmoqda.

Ko'rinib turganidek, fuqarolik jamiyatiga nisbatan ilmiy yondashuvlar bu hodisaning imkon qadar barcha qirralarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotchilar fuqarolik jamiyatini avvaldan rejalashtirishdan qochish kerakligini uqtirar ekan, fuqarolik jamiyati rivojiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish zarurligini ta'kidlashadi. Zero, fuqarolik jamiyati o'zini o'zi boshqaruvchi ko'ngilli tuzilmalar rivoji bilan ma'lum davr mobaynida "pishib" yetiladi.

I.2. Fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik

Mazkur mavzuning asosiy maqsadi fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqarolarning faolligi qanday ahamiyatga ega ekanligini yoritishdan iborat. Zero, fuqarolik jamiyati fuqaroviy ongi va faolligi yuksak bo'lgan fuqarolar yordamida barpo etilishi mumkin. Fuqaroviylik mamlakatning rivojlanish bosqichlarida, boshqacha aytganda o'tish davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ham

⁴⁴ Геллнер Э. Условия свободы. М., 1995. 23-24-бетлар уюки Геллнер Э. Условия свободы. Гражданское общество и его исторические соперники. М.:Московская школа политических исследований, 2004.

⁴⁵ Пантем Р. Чтобы демократия сработала. М., 1996. –С.35.

ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan, aniqrog'i fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda fuqaroviylik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqaroviy faollikning negizini anglash uchun, avvalo, fuqaroviylikning nazariy mohiyatini tushunish talab etiladi.

Manbaiarda qayd etilishicha o'z vatani taraqqiyoti uchun har qanday yo'l bilan; jismoniy yoki ma'naviy mehnat bilan xizmat qilgan kishi haqiqiy fuqaroga aylanadi. Bunday qarash biroz falsafiy ahamiyatga egadek tuyulsa-da, aslida fuqarolik jamiyati barpo etishdan aynan fuqaroning vatan taraqqiyoti yo'lidagi amaliy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqaroviylik dastlabki qarashda huquqshunoslikka oid atama singari tuyuladi. Aslini olganda bu hodisaning falsafiy, huquqiy, sotsiologik va siyosiy mohiyati mavjud.

Fuqaroviylik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik xamda vatanparvarlik xissi sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustivorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta'minlovchi jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin.

V.Dalning qayd etishiga qaraganda, "fuqaroviylik fuqarolikjamiyatini tuzish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etgan holatdir"⁴⁶.

Ko'rinib turganidek, fuqaroviylik nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning bilimi va jamiyatning holatini anglashi, ijtimoiy me'yorlardan xabardorligi va ularga rioya qilishiga bog'liq. Bu yerda fuqarolar tomonidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida amalga oshiriladigan birdamlik, o'zaro hamkorlik singari ixtiyoriy faoliyat ham nazarda tutiladi. Bunday holatda fuqaroviylikda huquqqa nisbatan ma'naviyatning ustivorligi namoyon bo'lmoqda. Aslida ko'pgina an'anaviy jamiyatlarda hamisha fuqaroviylik huquqiy mazmunda emas, balki ko'proq ma'naviy axloqiy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

⁴⁶ Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка (современное написание слов.) Изд. «Цитадель», г. Москва, 1998 г.

Sho'ro davrida fuqaroviylk albatta vatanga sadoqat va vatanparvarlik sifatida talqin etilsa-da, ko'proq mafkuralashgan ko'rinishda namoyon bo'lgan. Ko'pgina hollarda fuqaroviylk vatanparvarlik bilan aralash ifodalangan. Aslida esa vatanparvarlik fuqaroviylkning bir ko'rinishi, xolos. Fuqarolik jamiyati fuqarolarning oddiygina yig'indisi bo'lmagani singari fuqaroviylk ham individual ahamiyatga ega bo'lgan hodisa emas. Fuqaroviylk bir mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o'z vatanlariga sodiqligi, qonunlarni hurmat qilishi, ularga bo'ysunishi, shuningdek vatanini himoya qilish va umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarda faollikni nazarda tutadi. Fuqaroviylkka nisbatan berilgan fikrlarni umumlashtirgan holda uni quyidagicha ta'riflash mumkin: Fuqaroviylk bir tarafdin jamiyatda shaxsning oily darajada mustaqilligini, ikinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi.

Fuqaroning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi, boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish, fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy mas'ulliyatini anglash, fuqarolarning tengligi, yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqellikka nisbatan holisona va tanqidiy yondashuv, hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati, bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviylk o'zlikni anglash fuqaroviylkni ifoda etuvchi muhim jihatlar qatoriga kiradi.

Fuqaroviylkni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish ham mumkin. Fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviylk xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakillangan bo'lsa uni fuqaroviylk pozitsiyaga ega bo'lgan shaxs sifatida etirof etish mumkin. Agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

Aynan ana shu so'nggi pog'onaning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi. Faol fuqaro guruhiga mansub kishilar siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari ularda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, ularda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi.⁴⁷

Fuqaroviylikning tugal yoki to'kis ekanligini quyidagi mezonlar vositasida talqin qilish mumkin. Agar fuqaroviy pozitsiya hali shakllanmagan, fuqaroviy hususiyatlar, o'z haq-huquqlari uchun kurashish istagi to'liq namoyon bo'lmasa fuqaroviylikning eng quyi darajasi namoyon bo'ladi. Fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bunda fuqaroviylikning o'rta darajasi namoyon bo'ladi. Agar fuqaroda fuqaroviy hususiyatlar hamda faol fuqarolik pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy xarakterga kirish ishtiyoqi yaqqol namoyon bo'ladigan bo'lsa uni yuqori darajada fuqaroviylik sifatida talqin etish mumkin.

Fuqaroviylik jamiyat a'zolarini safarbar etish va yo'naltirishga xizmat qiladi. Fuqaroviylik tevarak-atrofdan bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatni, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Fuqaroviylik jamiyat oldida ma'lum bir maqsadning shakllanishiga xizmat qiladi. Albatta jamiyatda fuqaroviylikning rivojlanishi uchun tegishli tarbiyaviy choratadbirlar, qulay ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega.

Fuqaroviylik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan bog'liq bo'lib, bunday darajaga yetgan kishi siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun amaliy harakat qilish uchun zarur bo'lgan qarorga kelish qobiliyatiga ega bo'ladi. Vatanparvalik ruhiga, mas'uliyat, siyosiy madaniyat va taraqqiy topgan siyosiy ongga ega bo'lgan jamiyat a'zosini fuqaroviylikka ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin.

⁴⁷ Карпов Н.В. Политическая культура в процессе становления гражданского общества // Вестник Московского университета.-Сер. 18: Социология и политология.-2006.- №1.

Endi bevosita fuqaroviy ongning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish o'rinlidir. Fuqaroviy ong demokratik qadryatlar, ideallar, huquq va erkinliklar nuqtai nazaridan shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni anglashdan iborat. Albatta har bir davlat va jamiyatda demokratik qadryatlar o'ziga xos tamoyillar va meyorlar asosida qabul qilinadi. Fuqarolik ongi jamiyat taraqqiyotining shunday bosqichidagi ruhiy holatini anglatadiki, bu davrda demokratik meyorlar va qadryatlar hayotning asosiga aylanadi.

Fuqaroviy ong iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarda meyoriy, shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, muloqotga yetaklovchi singari rang-barang vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar ta'sirlashgan holda o'zaro kesishadilar va bir-birini to'ldiradi. Ularning ko'pchiligi davlat va uning institutlariga xosdir. Ammo davlat organlari qonunlar, meyoriy hujjatlar, qoida va talablardan iborat huquqiy doirada faoliyat yuritsa, fuqarolik ongi erkin shakllanadi. Fuqaroviy ong meyorlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllanadi, uni muvofiqlashtiradigan yoki uni amalga oshiradigan maxsus tuzilmalar bo'lmaydi. Fuqarolik ongining vazifalari alohida individ emas, balki butun jamiyat faoliyati bilan bog'liq.

Fuqaroviy ong jamiyat hayotida turli shakllarda namoyon bo'ladi. Kishilar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar borasida o'z qarashlari, tassavurlari, qadriyatlari, intilishlari, me'yorlarini turli ko'rinishlarda namoyon etishadi. Jamiyat, guruhlar, shaxsning ijtimoiy manfaatlari namoyon bo'ladigan fuqaroviy manfaatlar tizim holiga keladi. Aynan tizim holida bo'lganligi tufayli fuqaroviy manfaatlar har bir shaxsning qadriyatlarini xayotga tatbiq etadi, uning jamiyatga, davlatga, boshqa fuqarolarga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Fuqaroning mas'uliyati, maqsadlari, vazifalarini belgilashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Aynan ana shu tarzda shakllangan fuqaroviy ong fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar, g'oya hamda tasavvurlarni shakllantirish, jamiyatni komillik va erkinlikka yetaklashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati bir necha avlod almashinuvini talab etadigan jarayon bo'lganligi singari fuqaroviy ong ham tarixiy davr mobaynida shakllanadi. Har bir

mamlakatdagi fuqaroviy ong shu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimning tabiatga mos ravishda shakllanadi. Shu mamlakatga xos bo'lgan ijtimoiy tizim, aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Fuqaroviy ong tabiiy va tadrijiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, uni su'niy jihatdan tezlashtirish mumkin emas. U ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillar negizida tadrijiy tarzda shakllanadi. Har bir avlod mavjud demokratik qadriyatlarni o'zlashtiradi va yangilarni yaratadi. Bu jarayonda fuqarolik ongini belgilab beruvchi me'yorlar va qadriyatlarni saqlash hamda uzluksiz takomillashtirish eng muhim faoliyat hisoblanadi.

Tadrijiy taraqqiyot natijasida demokratik tasavvurlar mustahkamlanib, asta-sekinlik bilan fuqarolik tajribasi to'planib boradi.

Fuqaroviy ong bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Fuqarolik ongi ijtimoiy tizimning o'zgarishi bilan yangilanadigan qadriyatlarga moslashib boradi. Boshqa tarafdin fuqarolik ongi ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faol omil hisoblanadi. U fuqarolarni faol harakatga boshlovchi tasavvurlar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli, jamiyat o'zligining yangilanishiga, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Fuqarolik ongi ijtimoiy taraqqiyotning ruhiy negizini yaratgan holda jamiyatning mustahkamlanishiga hizmat qiladi.

Fuqaroviy ong yangi g'oyalarni qabul qilish darajasida ochiq harakterga ega. Yangi g'oyalar shu tizimga mos ekanligi o'z isbotini topgan taqdirda asta-sekin jamiyatning mohiyatiga singib boradi. Madaniy yangilanishlar uzluksiz tarzda ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish darajasida ko'p ro'y bergan taqdirda jamiyatda voqelikni his etish uchun yangicha usullar vujudga keladi va bu o'z navbatida fuqaroviy ongning o'zgarishiga olib keladi.

Mamlakatda siyosatni tubdan o'zgartirish hatto mulkka nisbatan munosabatni ham butunlay o'zgartirish mumkin, ammo kishilarning asosiy qarashlari va qadriyatlarini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmaydi.

Fuqaroviy ong umumiy tamoyillargagina asoslanmasdan, mohiyati jihatidan o'zgarib boradi. Albatta jamiyatda barqaror bo'lgan, xar qanday siyosiy tizimga xos bo'lgan tarixiy tajriba, an'analar singari o'zgarmas xususiyatga ega qadriyatlar

mavjud bo'lib, ular fuqaroviy ongda ro'y berishi mumkin bo'lgan tezkor o'zgarishlarni tiyib turadi.

Tushuncha sifatida "fuqaroviy ong" haqida gap ketganda, avvalo, fuqaroning davlat bilan siyosiy-huquqiy munosabatlari nazarda tutilib, kishining biror-bir davlatga mansubligi va shu davlatning qonunlariga bo'ysunishi tushuniladi. Kishining huquqiy maqomida ifodalangan fuqarolik davlat bilan fuqaro o'rtasida amal qiladigan bir qator huquq va burchlar bilan mustahkamlangan.

Turli ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi ro'y beradigan va manfaatlari amal qiladigan jamiyat munosabatlariga fuqaroviy ong kirib boradi va ularni aks ettiradi. Shuningdek, u kishilararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatgan holda ularga aniqlik, mazmun va shakl bag'ishlaydi. Kishilarning ijtimoiy hayot hamda davlatga nisbatan, shaxs bilan davlat o'rtasida xaqiqiy va me'yoriy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari fuqaroviy ongda mujassamlashgan.

Ijtimoiy-siyosiy, diniy, ahloqiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa me'yorlar, talablar, tamoyillar, qoidalar umumiy fuqaroviy dunyoqarash shaklida fuqaroviy ongning tarkibiy elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyatning barqarorligi demokratik qadriyatlar bilan boyishni taqozo etadi. Bu jaroyon jamiyatdagi fuqarolarning ijtimoiy erkin sharoitda yashashga qanchalik tayyor ekanliklari, ya'ni shaxslarning fuqaroviy yetukligi va faolligiga bog'liq. O'z navbatida fuqaroviy yetuklik va fuqaroviy mas'uliyat jamiyat a'zolarining fuqaroviy ongi darajasi bilan belgilanadi. Aynan fuqaroviy ong jamiyatning ma'naviy, intellektyual hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini shakllantiradi.

Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo'lida fuqarolar o'rtasida kelishuv bo'lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro'y beradigan ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida fuqaroviy ong o'zgarib boradi va fuqaroviylik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z aksini topadi.

Davlat va jamiyat, davlat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning tabiati haqidagi bilimlarning kengayishi "fuqaroviylik" tushunchasini qayta-qayta tafakkur qilishni

taqazo etadi. Ijtimoiy jarayonlar natijasida sayqallangan fuqaroviy madaniyat va fuqaroviy ong kishilarni iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy jihatdan shakllantiradi.

Fuqaroviylik va huquqiy ongni o'rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o'rganishdan iborat. Zero, fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan ham barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhimahamiatga egadir. Zero, ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqaroli pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur ahglashni taqazo etadi.

Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Bu yerda jamiyatning davlat faoliyatidan holi holda jamoviy tashabbuslar bilan rivojlanishi nazarda tutilmoqda. Bu partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi.

Aslini olganda jamiyat a'zolarining asosiy ko'pchilligi jamiyatda mavjud qoidalar asosida faoliyat yuritgan holda ijtimoiy faollik ko'rsatishmaydi. Bunday passivlikning jamoat tartibini saqlash nuqtai nazaridan qaysidir darajada ijobiy jihatlari ham mavjud bo'lsa-da, fuqarolik jamiyatini qurishda fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga ekanligini esda tutish lozim. Zero, passiv fuqarolar hech qachon o'z huquqlari uchun kurashmaydi. Fuqaroviy faollik o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladi. Ko'pgina hollarda fuqaroviy faollikning boshlang'ich nuqtasi sotsiologlarni qiziqtirgan masaladir. Zero, aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy o'zgarishlar davlat

yetakchiligida amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashadi. Ko'pinch fuqaroviy faollik yoshlarda kuzatiladi. Albatta fuqaroviy faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omil faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Bilim darajasi, dunyoqarash, tarbiya va hatto yashash manzili ham bunga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pinch yoshlar fuqaroviy faollik ko'rsatishni istahsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsata olmaydilar. Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati murakkab bo'lganligi tufayli o'z istaklarini siyosatchilar oldida to'g'ri shakllantirishga qodir bo'lmaydilar. Boshqa tarafdin siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'lganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda murakkabliklarga duch kelishlari mumkin. Shu tufayli ularning ba'zilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishadi, aksariyati esa umuman siyosatga qiziqmay qo'yadilar.

Biror-bir sohadagi mummolarni bartaraf etish imkoniyati nodavlat notijorat tashkilotlarda mavjud bo'lganligi tufayli yoshlarin aksariyati shunday tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishadi. Davlatning siyosiy tuzilmalarida professional faoliyatga kirish fuqaro yoshlardan ma'lum ish tajribasi, bilim va ko'nikma talab qilsa, jamoat birlashmalariga a'zo bo'lib kirish uchun ish tajriba talab etilmaydi, balki faqat qiziqishning o'zi yetarli bo'ladi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda fuqarolar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, mavjud vaziyatni o'zgartirish, ijtimoiy muommolarni bartaraf etish bo'yicha o'z tashabbuslarini ilgari surish zarurligini anglab yetadilar. Bu esa turli ko'ngillilar jamiyatlarining tuzilishiga sabab bo'ladi. Insonda boshqalarga yordam berish, ayniqsa, muommoli vaziyatga tushgan vatandoshlariga, qo'shnilariga ko'maklashish hissi mavjud. Aynan boshqalarga yordam qo'lini cho'zgan kishi nafaqat muommoni bartaraf etishga hissa qo'shadi, balki u o'zligini ham yanada chuqurroq anglay boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'ngillilik butun dunyoda keng tarqalgan hodisalardan biriga aylangan. Bu hodisa ijtimoiy ahamiyatga ega muommolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga bel bog'lagan kishilarni umumbashariy miqyosda birlashtiradigan jarayonga aylangan. Ko'ngillilik turli shakllarda amalga oshirilishi, jumladan turli kasalliklarga qarshi kurashish uchun

xayriya faoliyatidan boshlab qashshoqlik yoki tabiiy ofatlarga qarshi kurashish shaklida bo'lishi mumkin.

Insonni ixtiyoriy faoliyat, ya'ni ko'ngilli ishga chorlovchi istakning negizida har bir kishiga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar yotadi. Jumladan, boshqalarga naf keltirish, o'zini namoyon qilish va muloqot istagi kishini faollikka etaklaydi. Kishida ijtimoiy jihatdan e'tirofga bo'lgan ehtiyoj ham mavjud. Professional va hayotiy tajribani qo'llash istagi ham kishini shunday faoliyatga chorlashi mumkin. O'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z g'oyalarini tatbiq etish istagi ham kishini harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etish ehtiyoji ham kishini faollikka yetaklaydi.

Ko'ngilli faoliyat inson uchun o'z shaxsiy ehtiyojlari bilan jamiyat ehtiyojlarini uyg'unlashgan holda hayotga tabiiq etish uchun o'ziga xos imkoniyatdir. Bu ehtiyoj kishilarning o'z axloqiy burchlarini anglash hamda insonning barkamolligidan dalolat beradi. Inson ko'ngilli faoliyat yuritar ekan, axloqiy jihatdan takomillashib boradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik va birodarlik hissiga, insonparvarlik tuyg'usiga ega bo'ladi. Ko'ngillilik faoliyati faol va ijtimoiy harakterga ega bo'lib, inson o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu faoliyat tevarak-atrofdan ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan faol munosabatning shakllanishiga, siyosiy voqelikka ziyrak nazar bilan qarashga yordam beradi.

Fuqarolik faolligi bugungi kunda davlat uchun misli ko'rilmagan ko'makchiga aylanmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar ro'y berayotgan, tug'ilayotgan va mavjud muammolarni muhokama qilish, ularning yechimini topish va hukumatga taklif etish imkoniyatiga ega. Turli nodavlat tuzilmalardagi yetuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro'y beradigan muammolar, bozorni tartibga solish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga hukumatga ko'makchilik qilmoqdalar.

Ma'lumki bozor munosabatlari sharoitida rang-barang ijtimoiy muammolar yuzaga kelaveradi, ammo ularning yechimini hukumat hamisha xam o'z vaqtida hal etavermaydi. Boshqacha aytganda, bunday muammolarni hukumat o'z vaqtida

payqash imkoniyatiga ega emas. Shunday muammolar mavjudki, ularning oqibati jamiyat uchun qanchalik mudhish bo'lmasin, ularning mavjudligini tan olish yoki ularni bartaraf etish uchun aniq belgilangan institutlar mavjud bo'lmaydi. Agar hukumat fuqaroviy faollikning yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmas ekan, yoki turli nodavlat va jamoat birlashmalariga ana shunday muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishga shart-sharoit yaratmas ekan, fuqarolik jamiyatini barpo etish muammoligicha qolib ketaveradi.

Fuqarolik jamiyati rivoj topgan mamlakatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ular serqirra faoliyat yuritadilar. Masalan, jamiyatdagi ma'lumotlilik darajasini oshirish yoki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borishadi va natijada parlamentga tegishli qonunlar va qonunlarga o'zgartirishlar taklif etishlari mumkin.

Tabiatni asrash yoki ekologik muammolarni bartaraf etish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, shahar havosining ifloslanishi, chiqindilardan tozalash bo'yicha jamoat birlashmalari hukumatga qimmatli fikrlar bilan bir qatorda amaliy loyihalarni taklif etadilar.

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik jamiyati uchun fuqaroviylik, fuqaroviy ong va fuqaroviy faollik juda muhim ahamiyatga egadir. Taraqqiyotni maqsad qilgan har qanday jamiyat uchun inson salohiyatidan foydalanish, insoning o'zligida, uning qalbida mavjud bo'lgan birdamlik, sahiylik, bag'rikenglik kabi fazilatlarga murojaat etishning o'zi kifoyadir.

II.BOB. O'ZBEKISTONDA OCHIQ FUQAROLIK JAMIYATI VA UNING ZAMONAVIY TAHLILI

2.1. Ma'rifiylik va dunyoviylik – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omli

Fuqarolik jamiyati fuqaro va uning erkinliklaridan boshlanadi. «Fuqaro» so'zining o'zi «mustaqillik», «teng huquqlilik», «shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini va o'z hurmatini bilish» kabi so'z va iboralarga sinonim sifatida yangraydi. Fuqarolik

jamiyatining shakllanishi bag'ri kenglik, ochiqlik, o'zaro hurmat, ezgulik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Jamiyatning madaniyati va ma'lumot darajasi o'z-o'zini tashkil etish sinergetik jarayonlari, hamkorlik, birdamlik va o'z-o'zini bilishni qabul qilishga qanchalik tayyor bo'lsa, u shunchalik fuqaroviy jamiyat bo'ladi. Fuqarolik jamiyati qurish jarayonining asosiy vazifasi – odamlarni ajratuvchi chegara va to'siqlarni bartaraf etib, hamkorlikda ish yuritishni o'rganishdan iborat. Fuqarolik jamiyati inson faoliyatining barcha sohalarida fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi. Chunonchi, siyosatda asosiy maqsad – aholi muayyan qatlamlarining manfaatlarini himoya qilish. Mamlakatimiz 1-Prezidenti Islom Karimovning bu borada quyidagi fikrlarni ilgari surdi: «Erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko'p-ko'p davlatlar asrlar davomida to'plangan tajriba va demokratik an'analarni rivojlantira borib yetib kelgan. Biz bunday jamiyatni qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz. Lekin bu go'zal orzuga erishmoq uchun tinimsiz intilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganib, o'z zaminimizga tatbiq etish lozim. Shu bilan birga, milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha iymon-e'toqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur»⁴⁸. Islom Karimov: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart»⁴⁹ deb O'zbekistonda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy konsepsiyasini asoslab berdi.

⁴⁸ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-b. – T.: O'zbekiston, 1999. – 304-b.

⁴⁹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-j. – T.: O'zbekiston, 1998. – 151-b.

«Pirovard maqsadimiz, – deb ta’kidladi I. Karimov , – ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotini, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir»⁵⁰. Buning uchun:

- milliy-an’anaviy boshqarish organlarini tiklash (masalan, hokimlik instituti);
- jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash;
- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini shakllantirish va ularning faoliyatini qonunlashtirish;
- davlat institutlari faoliyati ustidan xalq nazoratini o‘rnatish;
- hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimlariga bo‘linishini amalga oshirish;
- davlat va yuridik institutlarning faoliyatini liberallashtirish;
- iqtisodiyotda tashabbusni, xususiy mulkchilikni qo‘llab-quvvatlash;
- nodavlat va xalqaro notijorat tashkilotlarning yuzaga kelishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- ommaviy axborot vositalari faoliyatini demokratlashtirish, odamlarning davlat organlaridan istalgan axborotni olish huquqini ta’minlash;
- siyosiy partiyalar faoliyatini va ijtimoiy harakatlarni jonlashtirish;
- xalqning, fuqarolarning davlat organlarini shakllantirishda saylovlar, referendumlar orqali qatnashishini hayot tarziga aylantirish zarur.

I. Karimov tomonidan ilgari surilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»dagi konseptual maqsadlar yurtimizda fuqarolik jamiyati qurishning yangi bir davrini boshlab berdi. Konsepsiyada quyidagi yo‘nalishlar demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim ustuvor vazifalari sifatida belgilandi:

- davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish;
- sud-huquq tizimini isloh etish;

⁵⁰ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997. –3-b.

- axborot sohasini isloh qilish, axborot va soʻz erkinligini taʼmin-
- Oʻzbekistonda saylov huquqi erkinligini taʼminlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim jihati – insonga, uning erkinligi va huquqlarini taʼminlashga eʼtibor qaratilishi hamda bu jihatda davlatning asosiy masʼul siyosiy institut ekanligidir. Shuning uchun ham konsepsiyada «inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqarish dolzarb ahamiyatga ega» ekanligi koʻrsatib oʻtildi. Unga muvofiq ravishda mazkur «dastur, eng avvalo, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliklarining himoya qilinishini taʼminlash, jamiyatda inson huquqlari boʻyicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitoringini olib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni oʻzida mujassam etishi kerak»⁵¹ ligiga eʼtibor qaratildi.

Yuksak tafakkur insonning shaxs sifatida oʻzini toʻla namoyon etishini taʼminlaydi, kelajakka ishonch va qatʼiyat bilan odimlashiga asos boʻladi. Bir butun jamiyatning tafakkuridagi yuksalishlar esa mamlakat rivoji va ertangi kun istiqbolini belgilab beradi. Davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimizning va jamiyatimizning manfaatlariga mos holda amalga oshiriladigan isteʼdodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, Vatanga, ona-zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash, joy-joyiga qoʻyish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirish vazifasi ham aynan shu maqsadlarni oʻz ichiga oladi.

Bugungi demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch boʻlgan

⁵¹ arimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: Oʻzbekiston, 2010. – 46-b

angicha dunyoqarash, bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasi O‘zbekistonda asosiy ustuvor yo‘nalishlar qatoriga qo‘yildi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar barkamol avlodni tarbiyalash va yangicha mustaqil tafakkur tarzini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin tutmoqda. Ayni vaqtda, biz dunyoni yangicha ko‘z bilan ko‘rib, yangicha, mustaqil tafakkur bilan idrok etyapmiz. Bugungi kunda har bir shaxs ijtimoiy jarayonlarni o‘zida mujassam etuvchi kuch sifatida ma‘naviy, madaniy, ma‘rifiy ehtiyojlar va milliy manfaatlarni teran anglay oladigan, milliy g‘oya va jamiyatimiz mafkurasini ongi va qalbiga singdira olgan yangicha tafakkurga ega bo‘lib bormoqda.

Insonning jamiyatga uyishib yashash zaruriyati uning ma‘naviy-ma‘rifiy dunyosining yuksalishi natijasi o‘laroq shakllandi. Chunki, insonning aql-idroki rivojlanib borishi bilan u o‘zining mafaat va ehtiyojlarini shakllantira oladi va ularni yolg‘iz o‘zi qondira olmasligini anglay boshlaydi. Inson dunyoqarashi ma‘naviy va ma‘rifiy qadriyatlar bilan boyigan davrdan boshlab u o‘zining atrofidagi muhitga, inson va insoniy munosabatlarga zaruriyat seza boshlaydi. Inson o‘z manfaatlari va orzu-istaklarini amalga oshirish uchun ham o‘z atrofidagi jamiyat a‘zolarining umumiy manfaatlari va ehtiyojlarini xuddi o‘zinikidek qabul qilishi, umummanfaatlar yo‘lida beixtiyor ishtirok etishni anglay boshlashi bilan uning hayotida ma‘rifiy-ma‘naviy yuksalish bosqichi boshlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, har qanday ijtimoiy muhit yoki insoniy munosabatlar majmuasi ma‘naviy-ma‘rifiy yuksalish manbaidir. Ma‘naviy qadriyatlar jamiyat hayoti bilan uyg‘unlashgan muhitda turli insoniy manfaatlar va boshqa zaruriy ehtiyojlar xech bir siyosatsiz, tazyiqlar yoki kuch ishlatishlarsiz qondiriladi. Ma‘naviy qadriyatlarga amal qilinmagan jamiyatlarda esa bu kabi jarayonlar totalitar yoki avtoritar usullar – kuch ishlatish bilan hal qilinadi.

Siyosiy tuzumlar inqirozga yuz tutishi, yangi tuzumlar paydo bo‘lishi bilan ma‘naviy qadriyatlar mezonlarini tubdan o‘zgartirishga ehtiyojlar sezilishining asosiy sabalari shundaki, xar bir jamiyat o‘z rivojlanishining qaysidir bosqichida ma‘naviy qadriyatlar – adolat mezonlari buziladi, inson erkinligini taminlash mumkin bo‘lmay qoladi, zulm avj oladi. Davlat organlaridagi mansabdorlarda axloqiy tanazzul

boshlanadi. Natijada, jamiyat a'zolarida bu kabi ma'naviy inqirozga nisbatan norozilik paydo bo'ladi, nafrat kuchayib boradi. Jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka putur yetadi.

Inson ma'naviyati minglab yillar tajribasi, ilmu fan natijalari va yutuqlari asosida tobora takomillashib, mazmunan boyib boradi. Insoniyat tarixida ilk bor ma'naviy qadriyatlar, inson axloqi va etikaga doir ulkan ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan mutafakkirlar Platon va Aristoteldir. Albatta, bu davrda ma'naviyat tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri ishlatilmasa ham, uning qadriyatlari va mazmuni turli xil ifodalarda o'z aksini topgan edi.

Qadimgi yunon mutafakkirlari o'z davrlarida etika, falsafa va siyosat fanlari vositasida ma'naviyatning turli qirralarini izohlab, ularning inson yuksalishidagi o'rni va ahamiyatini ochib bergan edilar. Platon etikani amaliy falsafaning muhim jihatlaridan biri sifatida ifodalab “u xarakterni tarbiyalaydi”⁵², deb ko'rsatgan edi.

Aristotel ma'naviy munosabatlarda “ixtiyoriy” va “beixtiyoriy” kabi tushunchalarni ishlatadi. Beixtiyoriylik shuki, kuch ishlatish yoki bilmaslik oqibatida amalga oshadi. Lekin, shu bilan birga, xech qanday kuch ishlatib, xech qachon majburlab bo'lmaydigan narsalar ham mavjudki, bunda bu voqelikka tortilgan o'zlikni ham, tashqi shart-sharoitlarni xam ayblab bo'lmaydi.⁵³

Axloqiy va ma'naviy sifatlar inson tomonidan o'zlashtirilgan ruhiy sifatlardir. Tabiatan yoki beixtiyor kishi yaxshi bo'lib qolishi mumkin emas. Aristotelning takidlashicha, ezgulik sifatlari bizga tabiat tomonidan in'om etilmaydi, balki u bizga uni o'zlashtirish imkoniyatiningina beradi va bu faqat axloqning xususiyatigina bo'lib qolmaydi. Chinki, “biz tabiatdan olgan narsalarning xammasini dastlab imkoniyatlar shaklidagina olamiz va oqibatda ularni voqelikka aylantiramiz”. Shuning uchun “umuman biz ezguliklarni ruhning maqtovg'a sazovor o'zlashtirgan xususiyati, deb ataymiz”⁵⁴. Aristotel ma'naviyatli va xushxulqli insonni boshqa insonlar uchun

⁵² Платон. Диалоги. – М.: Мысли, 1986. –С.8.

⁵³ Аристотель. Никомахова этика. //Соч. В 4-х т. Т. 4. – М.: Мысль.1984, -С.97.

⁵⁴ O'sha joyda. –С.78.

me'yor, u doimo o'zi bilan uyg'unlik topa oladi va "vijdon ta'nasidan xolidir" ,deb baholaydi.⁵⁵

Aristotel ma'naviyatli va axloqli insonning jamiyat rivojida o'rnini yuksak baholaydi: "Ezgulikni kasb etgan inson hech kimga zarar yetkazmaydi, aksincha, ezgulikdan uzoq inson eng gunohkor va yovvoyi mavjudotdir, jinsiy lazzatlanish va yeb-ichishga nisbatan u har qanday xayvondan ham tubandir. Axir, turli hayvonlardan inson ezgulik va yovuzlik, adoltilik va adolatsizlik kabilarni idrok etishi bilan farqlanadi"⁵⁶.

Ma'naviy qadriyatlar nazariy va amaliy jihatlarini yuksaltirishda Abu Nasr Farobiyning o'rnini beqiyosdir. Farobiyning fikricha, inson mavjud olamning yakuniy hosilasi bo'lib, u aql-idroki shakllanishi barobarida insoniy fazilatlarni egalladi, dunyoni anglay boshladi. Ma'naviyatni egallash, ma'rifatga intilish, axloqli bo'lib, ilm-fanni o'zlashtirish vositasida ezgulikka xos fazilatlar insonni barqarorlikka yetkazadi. Insonning asl maqsadi o'z yuksak fazilatlari tufayli ham baxt-saodatli jamoani barpo etishdir.

Mutafakkir falsafani inson ruhiyatini va jamiyat hayotini sog'lomlashtirish vositasi, deb qaraydi. Farobiy nafsni tiyishni inson ma'naviy yuksakligining mezoni sifatida baholaydi. U o'zi ning "Kitob fusus-al-madaniya" nomli kitobida shunday deb yozgan edi: "Inson nafsiga (ruhiga) xuddi uning vujudiga o'xshash, sog'lik va xastalik ham xosdir. Nafsning sog'lomligi shunda ifodalanadiki, uning ichki xolati va turli qismlari o'rtasida uyg'unlik vujudga keladi. Buning natijasida inson doimo fazilatli, olyjanob ishlarni qiladi va go'zal xulqlar sohibi bo'la oladi. Nafsning (ruhning) xastaligi shunda ifodalanadiki, nafsning ichki xolati va qismlari o'rtasida muvozanat buzilgan bo'ladi, shu tufayli odam doim razil ishlarni, xunuk xatti-harakatlarni qilishga odatlanib qoladi"⁵⁷.

Ma'naviyatni umuminsoniy qadriyatlarning eng oily maqomi sifatida ilk bor tarannum etgan buyk mutafakkir Alisher Navoiydir. U o'zining "Hayratul-abror" asarida ma'naviyatli insonni quyidagicha tasavvur etgan edi: "Sen insonlarga foyda

⁵⁵ Аристотель. Никомахова этика. //Соч. В 4-х т. Т. 4. - М.: Мысль.1984. -С.67.

⁵⁶ Аристотель. Политика. Пер. Н. Скорцова. - М., 1965. -С.118.

⁵⁷ Фараби. Социально-этические трактаты. - Алма-ата: Наука, 1975. -С.172.

yetkazishni o'zingga shior etding; shundan keladigan nafni o'zingga yor aylading. Sening xalqqa ko'rsatgan foydang shak-shubxasizdir; lekin bilib qo'yki, bundan o'zingga tegadigan naf ko'proqdir. ...Kimki boshqalarga zarar yetkazishni odat qilsa, bundan elga emas, avvalo jabr etgan bo'ladi. ...Kimning xalq g'amidin g'ami bo'lmasa, xaqiqiy odam bo'lsang, uni odam dema''⁵⁸

Insoniyatning jamiyatga uyushib yashashi, kishilarnig o'zaro xamkorligi, jamiyat hayotinig barqarorligi va farovonligini taminlashning ichki manbai xam ma'naviylik, xam ma'rifiylikdir. Ma'naviy boylik chegara bilmaydi, millatni tan olmaydi, u qaysi mamlakat yoki jamiyatda bo'lmasin, bu o'sha joydagi ma'naviy komil insonlar mulkidir. Umuminsoniy qadriyatlar qaysi hududda rivojlangan bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyatning unib-o'sishi uchun muhit, xar tomonlama shart-sharoitlar tug'iladi. Lev Tolstoy ma'naviy boy va ma'naviy qashshoq odamni shunday ta'riflagan edi: "Eng yaxshi odam-o'z fikri va o'zgalar xis-tuyg'ulari bilan yashayotganidir, insonning eng past toifasi esa – o'zgalar fikri va o'z xis-tuyg'ulari bilan yashayotganidir''⁵⁹.

Mashhur adib Chingiz Aytmatov ma'naviy qadriyatlarni quyidagicha baholaydi: "Insoniyat ideallari yutuqlari sifatidagi modellarda bizning ijtimoiy tuzumimizni xarakterlaydigan ma'naviy prinsplarning baxridan o'tmasligimiz lozim. Bu prinsplar ichida eng asosiylari – jamiyat farovonligi yo'lidagi halol mehnat, kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlar va o'zaro xurmat, halollik va xaqgo'ylik, adolatsizlik bilan kelishmaslik kabilardir. Aslida, bular diyonatning tarkiblari bo'lib, o'z o'rnida, diyonat fuqaroviylikni xarakaga keltiruvchi kuchdir... Ma'naviyat – bu inson uchun dastlabki va eng asosiy mavjudlik qonunidir. Uni xar bir avlod, xar bir individ o'tmish ajdodlarning muqaddas va buzilmas merosi sifatida qabul qiladilar''⁶⁰.

Mashxur Yevropa faylasufi Jan Pol Sartr ham ma'naviy qadriyatlarga doir chuqur tadqiqotlar olib birgan edi. Jumladan, u shunday deb yozgan edi: "Inson o'zini o'zi yaratadi, u oldindan yaratilmagan. U ma'naviyatni tanlab, o'zini o'zi yaratadi. Atrofdagi shart-sharoitlarning insonga tazyiqi shundayki, inson qandaydir

⁵⁸ Navoiy A. Hayratul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov. –T.: G'. G'ulom nomidagi nashr. 1974 –B.97-98.

⁵⁹ Толстой Л.Н. Собр. В 22-х. Т. 22. Дневники. 1895-1910. – М.: Худож. Лит., 1985.-С. 130.

⁶⁰ Айтматов Ч. Верю в человека. // Собр. соч. В 7-ми т. Т. 7. – М., 1998. –С.478.

ma'lum bir ma'naviy qadriyatlarni tanlamay iloji yo'q. Biz insonni qandaydir nuqtai nazarlarni egallashga doir qaroriga bog'liq holda aniqlaymiz. Shuning uchun xam tanlashning ixtiyoriyligidan bizga nisbatan ta'na qilish bemanilikdir''⁶¹.

Albatta, ma'naviyat faqat insondagi shaxsiy fazilatlar, uning moxiyat va mazmuninigina belgilab qolmasdan, balki, u ijtimoiy-siyosiy xarakter kasb etadi. Insoniylik nuqtai nazaridan qaraganda, kishilarni boshqarish xuquqi ularning boshqaruvchilariga o'zlari bergan vakolatlari doirasida amalga oshishi talab etiladi. Bu huquq doirasidan chiqmaslik uchun xam ma'naviyatli siyosatga ehtiyoj seziladi. Lekin bu huquq doirasi o'zboshimchalik bilan kengayib borsa, boshqaruv, shu jumladan, siyosiy hokimiyat totalitarizm yoki avtoritarizm sari intiladi. Insonning axloqi va ma'naviy dunyosini yuksaltirishga nisbatan hokimiyatni o'z vakolatlari chegarasidan chiqmay ishlashini ta'minlash eng qiyin muammolardan biridir. Buning uchun nafaqat oily darajadagi, balki barcha darajadagi boshqaruv raxbarlari haqiqiy insoniylikdagi ma'naviy qadriyatlarni o'z dunyoqarashlariga singdirgan bo'lishi zarur.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, adolatli va fozil jamiyat qurish uchun davlat boshqaruvi, hokimiyat va siyosat ma'naviy qadriyatlar asosida qurilmog'I va faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Shuning uchun ham hozirgi davrga kelib siyosat bilan ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi umuminsoniy qadriyatlar talablaridan biriga aylandi.

Shu bilan birga, ma'naviyat faqat merosiy, tarixiy va an'anaviy qadriyat emas, balki doimo rivojlanib, takomillashib, yangi hayot tarzi bilan uyg'unlashib boruvchi voqelikdir. Aksaryat olimlar ma'naviyatga doir o'z izlanishlarini faqat o'tmish bilan cheklaydilar, hozirgi kunning dolzarb maqsad va vazifalari bilan bog'lamaydilar. Vaholanki, fransuz mutafakkiri Monten "Bizda – Fransiyada fanlarga oid izlanishlar, odatda to'g'ridan-to'g'ri foyda olishdan boshqa hech qanday maqsadlarni ko'zlamaydi"⁶², deb yozgan edi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, har bir nazariy izlanish bugungi kun amaliy hayoti talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqqandagina, u yanada rivojlanish va islohotlar uchun muhim ahamyat kasb etadi.

⁶¹ Сартр Ж.П. Экзистенциализм – это гуманизм. В кн.: Сумерки богов. М.: Политиздат. 1989. –С.139.

⁶² Монтень М. Опыты. Избранные главы. – М.: Правда, 1991. –С.110.

Xozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini hayotga tadbiq etish bilan xamoxang tarzda bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik qadriyatlarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, ko'ppartiyaviylik tizimini demokratik me'yorlar asosida takomillashtirish kabi yangidan-yangi dolzarb vazifalar paydo bo'ldi. Yangi jamiyat qurishdagi bu omillarning barchasi umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan qaraganda ko'proq ma'naviyatga yaqin bo'lgan mezonlardir.

Xozirgi davrga kelib rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati qadriyatlari – xalq hokimiyati, hokimiyatning fuqarolar manfaatlari asosida faoliyat yuritishi, siyosiy qarorlar qabul qilishni ko'pchilik ovozi bilan hal etish, ozchilik huquqlarining hurmat qilinishi, asosiy inson huquqlarining amal qilinishiga kafolatlar yaratilganligi, erkin va adolatli saylovlar tizimining an'anaga aylanganligi, qonunlarning barcha ughun tengligi, odil sud hokimiyatining o'rnatilishi, hukumat funksiyalarining Konstitutsiya bilan cheklanganligi, dunyoqarashlar pulyuralizmi, turli xil qarashlar va fikrlarning o'zaro bir-biriga chidamli bo'lishi kabi qadriyatlar xar bir fuqaroning turmush tarzi, ma'naviyati va madaniyatining uzviy va ajralmas bo'laklariga aylandi. Albatta, bu qadriyatlar XX asrda o'z takomiliga yetgan, o'z rivojlanishini qadimgi davrdan boshlagan ma'naviy yuksalishning so'nggi bosqichi maxsulidir.

Insoniyat tarixidagi rivojlanish sari intilish tajribalari va saboqlari ma'naviy qarashlar va amaliyotni avloddan-avlodaga meros etib qoldirdi. Ularning eng insoniy, oily ezgulikka doir nodir jihatlari to'planib, xayotga zid tomonlari unutilib, ma'naviy qadriyatlar takomillashgan tizimga aylandi. Shuning uchun xam mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov "Tarix – xalq ma'naviyatining asosidir" ,⁶³ deganda butunlay haq edi. Ma'rifatni yuksaltirishda tarixiylikning, tarixiy ongnig o'rni benihoya kattadir.

Sharq mutafakkirlari "ma'rifat" tushunchasining mazmunini juda xam keng ma'noda tushunganlar. Jumladan, mashhur olim Zunun al-Misriy ma'rifatni "bilish

⁶³ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston. 1999. –B.146.

nuri”, deb bilgan. Ilk Islom allomalari ma’rifatni (“a’rafa”, ko’plikda “ma’rifatun”) “bilish”, “bilim”, “bildirish” ma’nolarida qo’llaganlar. Lekin, IX-XII asrda arab tilida ijod etgan faylasuflar va boshqa olimlar “ma’rifat” deganda bilim va ilmni tushunganlar. Masalan, al-Kushariy “xar bir ilm – bu ma’rifat, ma’rifat esa ilm, xar bir Xudoni anglovchi ma’rifatlidir”, deb yozgan edi. Al-Muxasibiy esa “qo’rquv ilm mahsulidir, shuningdek, xotirjamlik zohidlik natijasi bo’lsa, tavba-tazarru ma’rifat oqibatidir”, deb talqin qiladi. Ko’pchilik xollarda esa ma’rifatni anglash arab tilida ijod etgan olimlarning yunon tiliga qilingan tarjimalarida esa gnosis (“gnosis” – bilim) tarzida berilgan. Suqrotning quyidagi fikirlari arabcha tarjimada (“Kitob as-sa’d”da) shunday ifodalangan edi: “Barcha ezguliklar faqat ma’rifat vositasida paydo bo’ladi”⁶⁴.

Ma’rifat insonning o’z erkinligini xis etishi, mutelik ruxiyatidan poklanishi, millat, jamiyat va o’z Vataniga nisbatan muhabbat va ezgulikka erishish kafolti xamdir. Faqt ma’rifatli inson o’z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan past qo’ya oladi. Inson jamoa, millat va davlat manfaatlarini ifoda etish va qondirish uchun faollik ko’rsata olsa, o’zining xam manfaatlarini anglashda ma’rifatlilik darajasi yuksalib boraveradi. Haqiqiy barkamol va ma’rifatli insonda jamiyatdagi barcha manfaatlar va ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga intilish, bu faoliyatni u xuddi o’zining umri mazmunidek xis qilish xarakteri shakllanadi.

Albatta, ma’rifatli insonni shakillantirish tabiiy holda, ya’ni o’z-o’zidan ro’y bermaydi. Buning uchun jamiyat, davlat, jamoatchilikning o’zaro hamkorlikdagi keng va chuqur sa’y-harakatlari va faoliyatlariga ehtiyoj seziladi.

Fuqarolar dunyoqarashi, o’y-fikirlashida o’tmish ajdodlarning ma’naviy merosi, jamiyat maqsadlariga uyg’un keluvchi ilg’or xorijiy qadriyatlar – fuqarolik jamiyati va demokratiyaga doir bilimlar majmuining singdirilishi, eski totalitar jamiyatga xos yashash usullari ruxiyatidan poklanishi kabi keng qamrovli ma’rifiy jarayonlarni amalga oshirish o’tish davrining dolzarb vazifasidir. Shuning uchun xam birinchi

⁶⁴ Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. – М.: Наука, 1978. –С.200.

prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrni bildirgan edi: “jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar xalokattan qutqarib qoladigan yagona kuch – ma’rifatdir”⁶⁵.

Ma’lumki, inson o’zligini anglamasa, u xech qachon erkin insonga aylana olmaydi. Ma’rifatli bo’lishning bosh sharti esa erkin fikrlash, o’z mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo’lishdir. Shuning uchun ham ma’rifatli jamiyatdagina erkin fikrlash, siyodiy pulyuralizm, umuman, demokratiya uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bunday jamiyatni boshqarish davlat uchun xech bir qiyinchiliklar tug’dirmaydi. Ma’rifat tufayli fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati yuksaladi. Eng oily hokimiyat faqt qonunlar timsolidagina namouon bo’ladi. Natijada, kishilardagi mutelik, loqaydlik, boqimandalik ruhiyati barxam topib, ular tabiatidagi istemolchilik kayfiyati o’rniga yaratuvchanlik, meaxnatga va hayotdagi yumushlarga ijodiy munosabatda bo’lish mayillari yuksaladi.

Inson faqt ma’rifatli bo’lish natijasidagina o’zi qurmoqchi bo’lgan ulkan bino – yangi jamiyatni tasavvur qila oladi. Ana shunday tasavvurgina insonga intilish, yangi yatatuvchanlik kuchini baxsh etadi. Agar inson o’z kelajak baxtu saodatini tasavvur qila olmasa, unda intilishlar shakillanmaydi. Chunki, o’zi yo’q narsaning na jozibasi, na jalb etish kuchi mavjud bo’ladi. Qolaversa, faqt ma’rifatli insongina jamiyat va davlat rivojlanishidagi demokratik va siyosiy jarayonlarda ixtiyoriy ravishda ishtirok eta oladi.

Milliy istiqlol mafkurasining eng asosiy maqsadlaridan biri – biz o’tmoqchi bo’lgan fuqarolik jamiyatini tasavvur qilish, xalqimizga ruhiy jixatdan ma’naviy oziq berish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o’rnatishga doir isloxotlar jarayonlariga fuqarolarning safarbarligiga erishish, fuqarolik jamiyatining xalq farovonligi, davlat mustaqilligi kafolati ekanligi g’oyasini singdirishdir.

Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov o’tish davridagi isloxotlarni chuqurlashtirishda ijtimoiy-siyosiy munosabatlar o’rnini xarakterlar ekan, jamiyat mafkurasini tushunchasiga xam aniqlik kiritadi: “Sodda qilib aytganda, jamiyatimizning mafkurasini shu jamiyatning tayanchi bo’lmish oddiy inson va uning

⁶⁵ I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. // Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.7. T.: O’zbekiston. 1999. –B.134.

manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim... Milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oily maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart''⁶⁶.

Birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan 1994-yilning 23-aprelida respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil topdi. Bu markaz uzoq davr mustamlaka bo'lgan mamlakatimizda xalqimizga yot bo'lgan dunyoqarash va mafkura tazyiqi ostida yo'qolayotgan milliy ma'naviyatni yuksaltirish, fuqarolarning o'zligini anglash jarayonlariga ta'sir ko'rsatish, sobiq tuzum dunyoqarashidan poklanish, o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhiga mos g'oyalarni shakllantirish va hayotga tatbiq etish, mintaqa xalqlarining mushtarak ma'naviy, ma'rifiy, ma'daniy ildizlarini tadqiq va taxlil qilish asosida targ'ib etish kabi dasturiy maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan edi⁶⁷. Lekin , "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi faoliyatida eski jamiyatdan qolgan buyurokratik ish uslublari, uning maxalliy tashkilotlar bilan aloqasi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi natijasida dasturiy maqsadlar amaliyotda o'z ifodasini toppish jarayonida ko'plab muammolar paydo bo'ldi.

O'z xarakter dasturining davr nafasi o'zgarib turishiga monand ravishda takomillashtirishga yaxshi axamiyat bermaganligi, markaz kengashi a'zolarining passivligi, boshqaruvdagi buyruqbozlik va faoliyatning faqat ma'muriy tomonlariga berilish, tashkiliy va mafkuraviy ishlarda yangi uslublarni qo'llamaslik natijasida "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi xalq ichiga chuqur kirib bora olmadi. Markaz va uning maxalliy tashkilotlari raxbariyatida mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatishning yetishmasligi natijasida ularning maxalliy hokimiyatning ijrochilari sifatida faoliyat yuritish kabi salbiy holatlar paydo bo'ldi.

Respublikaning bazi hududlariga mamlakat tarixi va jamiyatga butunlay yot bo'lgan diniy oqimlar, ekstrimistik tashkilotlar va aqidaparastlik g'oyalari kirib kela

⁶⁶ I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston. 1999. –B.91.

⁶⁷ Qarang: Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi nizomi. – T., 1995.-B.2.

boshladilar. Ular mamlakat tinchligi va osoyishtaligi uchun xavf tug'dirayotgan og'ir paytlarda xam markaz tomonidan ularga qarshi puxta nazariy izlanishlar va ma'rifiy chora-tadbirlar ko'rilmadi. Afsuski, markaz o'zining besh yillik faoliyatida (1994-1999-yy) jamiyatning asosini tashkil etgan mahallalar, mehnat jamoalari va qishloqlarda ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni hozirgi davr talablari asosida yo'lga qo'ya olmadi. Maktablar, litseylar, kollejlari va boshqa o'rta maxsus va oily o'quv yurtlarida tashkil etilgan ma'naviyat va ma'rifat burchaklari yoki xonalari tashkil etilgan bo'lsa-da, quyi tashkilotlardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda rasmiyatchilik va ma'muriyatchilik ustivorlik qildi. Markaz va uning joylardagi tashkilotlariga ko'proq nazariy jixatdan yaxshi tayyorgarligi bo'lmagan, ilgari davlat va partiya idoralarida tajriba orttirgan kadrlar rahbarlik qilishlari natijasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarda rasmiyatchilik avj oldi.

Malakatda ma'naviyat va ma'rifatga doir ishlarni tubdan yaxshilash, uni yangi bosqichga ko'tarish maqsadlarida Respublika hukumati tashabbusi bilan 1999-avgust oyida "Ma'naviyat va ma'rifat" Respublika kengashi tuzildi. Kengashning maqsadi jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlar o'rtasida milliy g'oya va milliy mafkuraga tayangan holda, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish orqali insonni ulug'lashga jismonan sog'lom, dunyoqarashi teran fuqarolarni kamol toptirish, deb topildi.

Shuningdek, kengashning mamlakat axlini Miliy istiqlol g'oyalariga sadoqat, Vatan va ulug' maqsadga e'tiqod, fidoiylik ruhida tarbiyalashga doir targ'ibot-tashviqot ishlarining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Respublika viloyatlari, shaxar, tumanlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shaxrida "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashlari tashkil etildi. Xar bir korxonalar, muassasa, shirkat xo'jaligi, o'rta maktab, litsey, kollej, gimnaziya, oily o'quv yurti, xarbiy qisimlar, huquqni muhofaza qilish organlarida "Ma'naviyat va ma'rifat" boshlang'ich tashkilotlari faoliyat yurita boshladi. Oily o'quv yurtlarining birinchi prorektorlari ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mutasaddilik qilishi belgilab qo'yildi. Natijada, 2005-yilga kelib, mamlakatdagi har

bir o'quv yurti, mehnat jamoasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga doir tashkilotlar va maxsus ma'naviyat va ma'rifat xonalari tashkil etildi⁶⁸.

Shuningdek, mamlakat yoshlarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ma'naviy dunyoqarashlarini yuksaltirish maqsadlarida ma'rifiy faoliyat olib borishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni beqiyosdir. Yoshlarning yangi tashkilot tuzish istaklaridan kelib chiqib, 1996-yilning 17-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi to'g'risida"gi farmoni asosida yangi yoshlarning tashkiloti shakillandi. Jamg'arma "yosh avlodning har tomonlama kamol topishi, chuqur bilim, kasb egallashi, o'zlarida yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik fazilatlarini xosil qilishi, ularning istiqbol ishining izchil davomchilari bo'lib yetishishlarida ko'p qirrali yordam ko'rsatishni o'zining dasturiy vazifasi qilib belgilaganligi"⁶⁹ ma'qullandi.

Shuningdek, jamg'armaning yoshlarni ijtimoiy jihatdan muxofaza etish ishlarida qatnashish, ularning bilim olish, mehnat qilish, siyosiy va boshqa konstitutsiyaviy huquqlarini to'la amalga oshira olishlari uchun yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar, milliy axloq, odob, demokratik yo'nalishlarni takomillashtirish asosida barkamol ma'naviy xislatlar, yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat, millatlararo do'stlik rishtalarini mustaxkamlash uchun zarur muxit va shart-sharoitning yaratilishiga ko'maklashish vazifalari belgilandi. Jamg'arma faoliyatining to'laqonli bo'lishini kafolatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori asosida jamg'armaga Vazirlar Mahkamasining zahira fondi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, markaziy davlat idoralardan katta miqdordagi mablag'lar ajratildi⁷⁰. Jumladan, viloyat, tuman va shaxar hokimliklari ham o'z hududlaridagi "Kamolot" jamg'armasi bo'limlarining faoliyat yuritishlari uchun moliyaviy jihatdan yordam ko'rsatdilar.

⁶⁸ Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi joriy arxivi. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazining viloyat, shaxar, tuman bo'limlari to'g'risida 2000-2005-yillar uchun ma'lumotnoma. –B.2-3.

⁶⁹ Jamiyatni isloh qilish yo'lida. Jamoat tashkilotlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari. – T.: Sharq, 1998, -B.12.

⁷⁰ Jamiyatni isloh qilish yo'lida. Jamoat tashkilotlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. – T.: Sharq, 1998. -B.63.

Biroq, “Kamolot” jamg’armasi va uning joylardagi bo’limlari mamlakat yoshlariga yetakchilik qilish, yoshlarning ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtirish kabi tashkiliy ishlar bilan ko’pchilik ishlar bilan yoshlarni o’ziga qamrab ololmadi. Xattoki, jamg’arma va uning maxalliy bo’limlari yoshlar o’rtasida ma’naviyat va ma’rifat ishlarini olib borishda xam sustkashlik qildi. Jumladan, o’tgan asrning 90-yillariga kelib, jamg’armaning ko’pchilik tashkilotlari o’z faoliyatlarini moliyaviy jihatlaridan taminlash qobiliyatni ham yo’qotib qo’ydi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Kamolot” jamg’armasining 1996-1999-yillardagi faoliyatini taxlil etib, unga nisbatan o’zining quyidagi tanqidiy fikirlari xaq edi: “Jamg’arma faoliyati, shuni ham tan olishimiz kerak, o’z holiga tashlab qo’yilgan, yoshlarni yuksak maqsadlarga davit etish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlari bir chetda qolib ketgan. O’z vaqtida bu tashkilot siyosatdan xoli, ya’ni jamg’arma sifatida tuzilgan edi. Bundan ko’zlangan maqsad – eski komsomol tizimi, umrini o’tab bo’lgan komunistik mafkura asoratlaridan yoshlarni xalos qilish edi. Biroq bu – Jamg’arma mamlakatimizdagi ijtimoiy jarayonlardan, ta’lim-tarbiya ishlaridan, ma’naviy hayotdan, umuman, bugungi boshimizdan kechirayotgan muammolardan butunlay chetda turadi, degani emas-ku!”⁷¹.

Jamg’arma va uning bo’limlari yetakchilari o’z faoliyati davrida yoshlarning asosiy maskanlari – maxalla, qishloq, mehnat jamoalaridagi yigit va qizlar bilan mustahkam aloqa bog’lay olmadi. Uning xarakat qilish doirasi yirik oily o’quv yurtlari, tuman va shaharlardagi korxonalaridagi faoliyatlar bilan chegaralanib qoldi.

Mamlakatda minglab yoshlarning vahhobiylik, turli ekstrimistik guruhlar faoliyatida ishtirok etishiga yo’l qo’ymaslik, ular o’rtasida dunyoviy jamiyatga doir ma’rifiy ishlar olib borishga yaxshi ahamiyat berilmadi. Yoshlarni bu yo’ldan qaytarish, jaxolatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, adashgan yoshlarni aniqlash va ular o’rtasida maxsus tadbirlarni amalga oshirish kabi yoshlar jamg’armasiga xos bo’lgan dasturiy maqsadlar ham amalda **тўлик** o’z ifodasini topmadi. Shuningdek, jamg’arma o’z yetakchilarini yangicha fikirlaydigan, dadil, ma’rifatli, mustaqil

⁷¹ I.A.Karimov. “Kamolot” - yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo’lsin. // Vatan ravnaqi uchun xar birimiz mas’ulmiz. T. 9. – T.: O’zbekiston, 2001. –B.193.

tashabbuslar asosida o'z ishini tashkil qila oladigan yoshlar hisobiga yangilay olmadi. Jamg'arma va uning bo'limlariga yetakchilar tanlashda faqat ularning ijrochilik sifatlariga xamda ularning yuqori tashkilotlar topshiriqlarini amalda bajarish salohiyati bo'lmasa-da, bu topshiriqlarni hech bir e'tiborsiz qabul qilishga o'rgangan, faqt ishning tashkiliy shakillarini bajarishga moyil bo'lgan yoshlarga e'tibor berilgan edi.

1999-yil 16-fevralda Toshkentda sodir bo'lgan noxush voqealar shuni ko'rsatdiki, mamlakat yoshlari o'rtasida haqiqiy ma'naviy, mafkuraviy va ma'rifiy tadbirlar olib bormay turib, yoshlar o'rtasidagi mafkuraviy bo'shliqlarni to'ldirmasdan, turli diniy aqidaparastlik va boshqa yot g'oyalarga qarshi keskin kurashmay turib, fuqarolik jamiyatida yashaydigan barkamol yoshlarni shakllantirish vazifasini amalga oshirish qiyin kechadi.

Dunyoda keng tarqalgan terrorchilik turlaridan biri, bu diniy terrorchilikdir. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida islom fundamentalizmiga doir terrorchilik turlari ko'paydi va ular keng tarqaldilar. Mazkur terrorchilik turi radikal fundamental g'oyalar asosida, musulmon xalqlari yashaydigan mamlakatlarda islomning ilk davridagi shariat tartibotlarini o'rnatishga urinmoqdalar. Islom dinini o'ziga niqob qilib olgan bu diniy fundamentalistlaning asosiy xuruj qilish nishonlari turli mo'tadil tuzumlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, dunyoviy tuzumda yashayotgan davlatlar, diniy ozchilik guruhlar, islomiy tuzumlar bilan xamkorlik qilayotgan davlatlar fuqarolari bo'lib qolmoqda. Fundamentalistlarning vahhobiylik aqidalari, ya'ni jamiyatni ilk islom davridagi shariat meyorlariga muvofiqlashtirishga intilishlar birlashtiradi⁷².

Ekstrimistik dunyoqarashga ega bo'lgan kishi boshqacha qarashlar bilan umuman kelishmaydi va o'z qarashlarini amalga oshirish uchun eng so'nggi choralar – mavjud tuzumni keskin ravishda o'zgartirish, o'z qarashlagrini kuch ishlatish yordamida singdirish, boshqacha fikrlaydiganlarni yo'q qilishgacha bo'lgan amaliyotni qo'llaydi. Ekstrimizm, mafkuraviy jihatdan olib qaraganda, bu oqim faqat

⁷² Qarang: Кожушко Е. П. Современный терроризм. Анализ основанных направлений. – Минск: Харвест. 2000. – С.11

o'zining siyosiy va diniy qarashlar tizimini tan olib, boshqa qarashlarni butunlay rad etadi.

Ko'pincha ekstrimistik aqida va harakatlarning tarqalish hududlari ko'proq hali shakillanib ulgurmagan va jamiyat e'tiboridan chetda qolgan ijtimoiy guruhlar, shuningdek, lyumpenlashgan kishilarni o'z ichiga olmoqdaki, ular o'zlariga xos ekstrimistik aqida va kuch ishlatish vositasi orqali jamiyatda o'z o'rnini ko'rsatishga va o'zlarini e'tirof ettirishga intiladi. Shuningdek, bazi ekstrimistik qarashlar ta'siriga ziyolilar, dindorlar va xarbiylarning vakillari xam tushib qolmoqda.⁷³

O'zbekistondagi bexisob tabiiy boyliklar, mamlakatning geosiyosiy ahamiyati diniy aqidaparastlarning mamlakatga nisbatan qora niyatlarini yanada avj oldirmoqda. O'zbekistonning geosiyosiy o'rnini e'tibor bersak, uning etnik, diniy mojarolar avj olgan, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar qurshovida qolgan turlicha tuzumlardagi xorijiy mamlakatlarga yaqin joylashganligi yaqqol ko'rinadi.

O'zbekiston davlatining pirovard asosiy strategik maqsadi – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat parpo etish, deb e'lon qilinishi, dunyoviy jamiyat va davlat shakillantirishga doir isloxotlarning chuqurlashib borishi mamlakat janubidagi va boshqa diniy mafkura keng rivojlangan davlatlarda in qurgan, ashaddiy diniy xalifalik qurish tarafdori bo'lgan turli terrorchi va ekstrimistik kuchlar tomonidan yomon ko'z bilan kutib olindi. Terrorchilarning 1999-yil fevraldagi xurujlari ularning haqiqiy niqobini ochib tashladi.

Terrorchi va ekstrimistik kuchlar mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi qiyinchilikradan foydalanib, o'tgan asirning 90-yillari boshidan boshlab O'zbekiston hududida yashirin faoliyat olib bordilar. Ma'lumki, ularning asosiy maqsadi islom aqidalari niqobi ostida mamlakatdagi siyosiy hokimiyatni egallash, shuningdek, o'zlarining o'rta asrlarga xos xalifalik hokimiyatini o'rnatishdir.

Ekstrimizm va terrorchilik aktlari o'tkazishdan manfaatdor qora kuchlarning yana bir maqsadi, bu – ularning ichida xalqaro qurol-yarog' biznesi bilan shug'illanuvchi turli kriminal guruhlarning faoliyat olib borayotganligidir. Shuning uchun xam ular Markaziy Osiyo hududida, xususan, O'zbekistonda doimo qurolli

⁷³ Qarang: Терроризм и террористы. Ист. Справочник. – Минск: Харвест, 1999. –С.26.

ziddiyatlar uyishtirib turishga urinadilar. Chunki, ular quroli to'qnashuvlarsiz o'z qurol-yarog'lariga bozor topa olmaydilar.

Albatta, endigina mustaqil davlat, erkin dunyoviy jamiyat qurishga intilayotgan O'zbekiston xalqini ulug' yo'ldan chalg'itishga urinish, unga o'zbek xalqining ming yillik merosi va tarixiga xos bo'lmagan mafkuralar va xalifalik tuzumini kuch bilan tiqishtirishga urinish xomxayoldan o'zga narsa emas.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va mavjud qonunchilik asoslarida mamlakatda dunyoviy davlat va jamiyat qurish xar tomonlama mustaxkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi quyidagicha ifodalanadi: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki xech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi."⁷⁴. Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda biron-bir dinga asoslangan diniy davlat yoki jamiyat qurish taqiqlqnga xamda fuqarolarni o'zlarining qanday dinga e'tiqot qilishlarini o'zlari hal etishlari huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur huquqiy qoida huquqiy davlat va jamiyatning muhim belgilaridan biridir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi taxriri) Qonunning 5-moddasi O'zbekiston davlati va jamiyatining dunyoviy ekanligini belgilab beradi: "O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi...Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi"⁷⁵.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston davlati va xalqi o'z oldiga dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadini qo'ygan. Mamlakatda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni pirovard strategik maqsad sifatida e'lon qilinishi ham O'zbekistonda dunyoviy davlat va jamiyat qurishni anglatadi. Chunki, har qanday

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003. –B.8.

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi taxrir) Qonuni. // Islom ma'rifati (Nazariy-uslubiy qo'llanma). – Toshkent Islom Universiteti. 2005. –B.79.

fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning dunyoviy xarakterda bo'lishi shart etib qo'yilgan. Shuning uchun xam terrorchi va ekstrimistlarning O'zbekistonda xalifalik tuzumini o'rnatishga doir xayollari real hayotdan uzoqdir.

Faktlar ko'rsatib turibdiki, endi terrorchilik harakatlari tarkibini fuqaroligi, dini, irqi, millati, yoshi, jinsidan qat'iy nazar, ashaddiy jinoyatchi, ekstrimistik guruhlar va turli kriminal shaxslar tashkil etmoqda. Rossiya, Ispaniya, Filippin, AQSH, Indoneziya, Buyuk Britaniya, O'zbekiston kabi mamlakatlarda ro'y bergan terrorchilik aktlari fikrimiz dalilidir.

Bir necha yillardan buyon O'zbekistonga qarshi xuruj qilib kelayotgan terrorchilar va ekstrimistlarning asosiy maqsadi O'zbekistondagi barqarorlik va mavjud siyosiy tuzumni ag'darishga va islom xalifaligini o'rnatishga qaratilgandir. Diniy ekstrimistlar va terrorchilarning Qirg'izistonning Botke, O'zbekistonning Sariosiyo va Uzun tumanlari, Buxoro viloyatining Romitan tumanida Toshkent va Andijon shaharlarida olib borgan bosqinchilik va qo'poruvchilik harakatlari shuni ko'rsatmoqdaki, ular nafaqat mamlakatdagi siyosiy tuzumni o'zgartirishga, balki Afg'onistondan narkotik moddalarni o'tkazish maqsadlarida xam turli tartibsizliklar keltirib chiqarishga urinmoqdalar.

Terrorchilik va ekstrimizm qaysi mintaqalarga yoyilga bo'lsa, o'sha yerda narkotik moddalarni yetishtirish, iste'mol qilish, undan millionlab, xattoki, milliardlab dollar foyda olinayotganligi bugun hech kimga sir emas. Narkotik moddalar yetishtirish va ishlab chiqarish terrorizmning keng tarqalishiga va avj olishiga mutanosib ravishda ko'payib bordi. Masalan, BMTning narkotik vositalarni nazorat qilish bo'yicha xalqaro dasturi ekspertlari ma'lumotlariga binoan 1987-yilda 2800 tonnaga yaqin narkotik moddalar ishlab chiqarilga bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilga kelib 6 ming tonnadan ham oshib ketdi. Shundan 4500 tonnadan ortiqrog'i Afg'oniston xissasiga to'g'ri keldi⁷⁶. 2003-yilda oldingi yilga nisbatan narkotik moddalar yetishtirish 6 % ga ko'payib, 3600 tonnani tashkil etdi. 2004-yilda bu ko'rsatkich 4000 tonnadan ham ortib ketdi. Bir kilogrami Afg'oniston chegarasida ming AQSH dollari turadigan narkotik modda Londonda 210 – 220 marta qimmat

⁷⁶ Terrorizm va ekstrimizm: asosiy tushunchalari va yo'nalishlari. – T.: Abu Ali ibn Sino nomli nashr., 2001. –B.14-15.

narxlarda sotilishi uni ishlab chiqarish, kerakli yerga yetkazish va sotish atrofida o'ziga xos jinoiy uyushmalarning yashirin shaxobchalari o'rgimchak uyasidek tarmoqlanib ketishiga olib keldi. Terrorchilik xurujlari va faoloyatini moliyalashtirish, shaxsiy daromadlar olish uchun narkotik moddalar yetishtirish va sotishni avjiga chiqarish bilan birga dunyo miqiyosida millionlab yoshlar o'rtasida narkotik moddalarni tarqatib, o'zlari e'lon qilgan diniy mafkuralarga teskari ish qilayotganligi bugun hammaga ayondir.

Narkotik moddalarning aksariyat qismi Markaziy Osiyo mintaqasiga yaqin chegaradosh janubiy hudularda yetishtirilishi sababli xam ularning faol xarakatlari O'zbekiston, Qirg'iziston kabi davlatlar chegarasiga qaratilmoqda. Chunki, narkotik moddalarni Markaziy Osiyo va Rossiya hududlari orqali Yevropadagi iste'molchilarga yetkazib berish arzon va qulaydir. BMTning rasmiy axborotlarida ko'rsatilishicha, jaxondagi narkotik moddalrning 75 % i Afg'onistonda ishlab chiqarilib, ularning deyarli 90 % I istemolchilari Yevropa mamlakatlaridagi giyohvandlardir.

O'zbekistonda o'tgan asirning 90-yillari boshidan o'zini "O'zbekiston islom harakati" deb atovchi ekstrimistik tashkilotdan tashqari, yana "Hizbut-tahrir al-islomiy" tashkiloti noqonuniy tarzda yashirin faoliyat olib bora boshlagan. Bu tashkilotlar mamlakatimizdagi ayrim yoshlar o'rtasida ish olib borib, hali biron bir g'oyaga berilmagan yoshlarga ta'sir qila oldi. Bu tashkilotlar O'zbekistonga xorijdan kirib keldi. "Hizbut-tahrir al-islomiy" tashkiloti mafkurasi ham "O'zbekiston islom harakati" amal qilayotgan vahhobiylar kabi hukumatni ag'darib, davlat siyosiy boshqaruvini egallash orqali islom xalifaligi davlati o'rnatishga asoslangan.

Andijon shahrida 2005-yil 13-maydagi terrorchilik xurujlani uyushtirga akromiylar oqimi 1997-1999-yillarda tashkil topdi. Akromiylar bugungi mavjud barcha tuzumlarni tan olmaydi. Ularning vahhobiylik oqimi ta'limoti asosida 1992-yilda yozilga tashkilot asoschisi Akromjon Yo'ldoshev tomonidan 12 ta darsdan iborat "Imonga yo'l" deb nomlangan dasturida akromiylar oqimining provard maqsadi islom xalifaligi davlatini tashkil etishdan iborat ekanligi takidlangan.

Akromiyalar o'z dasturidagi xarakat qilishning beshinchi – “to'ntarish” – bosqichida asosiy maqsadlari – mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, o'zlarining hokimiyatlarini o'rnatish kabi noqonuniy xarakatlari belgilab qo'yilgan. Akromiyalarning Andijon viloyati va Qo'qon shahri atrofida oz sonli o'z maslakdoshlari bo'lib, ular alohida yo'nalishdagi diniy o'qishlar bilan shug'ullanib keldilar.

Albatta, diniy terrorchilik va ekstrimizm illatini tag-tomiri bilan yo'qotib tashlash uchun davlat va jamiyat tomonidan hali ko'plab ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Mamakat chegaralarini mustahkamlash, armiyani hozirgi davr talablari asosida isloh etish, milly xavfsizlik organlari ishni yanada takomillashtirish – bu soxadagi ustivor yo'nalishlardir. Shuningdek, mamlakat atrofidagi vaziyat xam terrorchilik va ekstrimizmga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik bo'lishini taqozo etmoqda. Terrorizmga qarshi kurashda halqaro jamoatchilikni da'vat etish, dunyo xalqlarini undan ogohlantirish tashabbuslari ham ko'pincha O'zbekiston davlati rahbariyati tomonidan amalga oshirilganini bugun jahon afkor ommasi e'tirof etmoqda.

Mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2006-yil 25-avgustda qabul qilingan “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qarorda mamlakatda olib borilayotgan ishlar holati tanqidiy baholanib, bu sohadagi ishlarni rivojlantirishga doir yo'nalishlar belgilab berildi. Shu bilan birga, mazkur Qarordan kelib chiqib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tarkibiga tashkiliy o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur kengash tizimida yangi Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Bu markaz oldiga ma'naviyat va ma'rifat sohasida olib borilayotgan ishlarning zamonaviy ilmiy-nazariy asoslarga ega bo'lishi nazarda tutildi. Qarorga muvofiq “Respublika ma'naviyat va ma'rifat” markazi nomi bilan faoliyat yuritib kelayotga tashkilotning nomi Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi deb o'zgartirilib, bu tashkilotning asosiy faoliyat yo'nalishi aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari olib boorish deb belgilandi. Shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat

kengashi tarkibida endi ikkita tashkilot – Milliy g'oya ilmiy-amaliy markazi hamda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi faoliyat yuritishi belgilandi.

President tomonidan qabul qilingan “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi Qaror respublikaning barcha hududlarga ma'naviy-ma'rifiy ishlatni keskin yaxshilashga qaratildi. Shu maqsadda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'I Kengesi raisi viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari lavozimi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari esa kengashning hududiy bo'limlari rahbari lavozimlarini bajarishlari belgilab qo'yildi⁷⁷.

“Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi Qarorning qabul qilinishi mamlakat ma'naviy hayotida muhim burilish bo'ldi. Ma'naviy va ma'rifiy ishlarni olib borishga hokimlarning mutasaddi etib qo'yilishi natijasida joylarda amalga oshirilayotgan tadbirlar sifati yaxshilandi, ularda fuqarolarni qiziqtirayotga dolzarb masalalarga e'tibor berish kuchaydi. Zero, fuqarolik jamiyati qurish bu jarayonda ishtirok etadigan fuqarolarning nechog'lik ma'rifiyligi va ma'naviy yuksakligiga chambarchas bog'liqdir.

“Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorlogini oshirish to'g'risida”gi Qarorni amalga oshirish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy tadbirlar bu sohadagi faoliyatni jonlantirishga, axolini ma'rifiy ishlarga jalb etishning mazmun-mohiyati o'zgarishiga olib keladi. O'tkazilayotgan ma'rifiy tadbirlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashni yaxshilash, bozor iqtisodiyoti sharoitida paydo bo'layotgan muommolarning yechimini topish, fuqarolarning ijtimoiy siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirish, hokimiyat organlari boshqaruvida ijtimoiy adolat tamoyillariga muhim e'tibor berish, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida aholining ishtirokini oshirish kabi masalalarni muhokama qilishga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Ma'naviyat targ'ibot kengashi va uning

⁷⁷ Qarang: Kengashning qo'sh qanoti. – //Tafakkur. N 1. 2007.-B. 6-11.

joylardagi bo'limlari "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va Xotin-qizlar qo'mitalari quyi tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlar tarbiyasi masalalari, diniy aqidaparastlik va ekstrimizm kirib kelishni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni jonli o'tkazishga, ularni muvofiqlashtirishga doir ish faoliyatiga muhim e'tibor bera boshladilar.

Umuman, mamalakatda yangi jamiyat qurish va uni rivojlantirish maqsadlarida, avvalambor, inson omiliga muhim e'tibor berish, fuqarolik jamiyatini qurishga qobil bo'lgan, ma'naviy yuksak bo'lgan insonlarni shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki, fuqarolik jamiyati sharoitlarida davlat hokimiyatining aksariyat vakolatlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga berilishi natijasida bu institutlarda faoliyat olib boradigan fuqarolarga nisbatan mas'ullik his-tuyg'ulari shakllanishiga bo'lgan talablar tabiiy ravishda oshib boradi. Boshqaruv va boshqa sohalarda beriladigan vakolatlar xar bir fuqaroni o'z shaxsiy manfaatlarini jamoa, shuningdek, davlat xamda jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirgan holda ifoda etishlarini taqazo etadi. Shuning uchun xam jamiyatda yashaydigan fuqarolarning milliy va ma'naviy qadriyatlar kabi asosiy maqsadlar atrofida birlashishi va jipslashishi ular faoliyatini yanada takomillashtiradi, natijada fuaqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish uchun shart-sharoit tug'iladi.

Umuman, mamalakatda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish sohasidagi faoliyatning ustivor yo'nalishlaridan biri – xalq o'rtasida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida muttasil va samarali ma'rifiy-ma'naviy ishlarni yanada jonlantirishdir. Bugungi kunda asosiy diqqat-e'tiborni mehnat jamoalariga, maxallalarga qaratish zaruriyati sezilmoqda. Ayniqsa, dunyoviy jamiyat – fuqarolik jamiyati asoslarini chuqur o'rganish, uning institutlari shakllanish jarayonlarida bevosita ishtirok etish, jaxolatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shu maqsadda jamiyatning muhim institut – maxallalarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida o'rnini yanada oshirish, mahalla posbonlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifadir . Ayniqsa, mahallaning huquqni himoya qilish organlari bilan o'zaro aloqalarini jonlantirish, umuman mamlakatimizda istiqomat qilayotgan

barcha fuqarolarni terrorchilik va ekstrimizmga qarshi amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarda faol ishtirok etishga erishish nafaqat hokimiyat organlarining, balki barcha fuqarolik jamiyati institutlarining xam burchlaridir.

Mustaqillik davri islohotlari jarayonlari mashaqqatlari, tajribalari va saboqlari shuni ko'rsatdiki, xar qanday farovon jamiyat qurish amaliyoti mazkur insoniy birlikda yashaydigan kishilarning o'zining ham ma'naviy, ham ruhiy jihatlardan kamolotga yetkazishdek ulug'vor maqsadlarni bajarishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham O'zbekistondagi islohotlarning hozirgi bosqichida fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat burchini anglash, o'tish davridagi islohotlarda faol ishtiroklarini taminlashlari uchun ular o'rtasida ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga muhim ahamiyat berilmoqda. Zero, faqat ma'naviyatli insongina o'z erkinligiga erishish uchun intiladi, yuksak jamiyat qurishni o'zining insoniy burchi, deb biladi. Davlat va uning organlarini bosh islohotchi sifatida jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga intilishi zamirida xam ana shu purma'no hikmat yotadi.

Xulosa - bugungi kunda yoshlar tafakkur tarzini yanada boyitish uchun o'quv jarayonida quyidagi ishlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- yoshlar ongi va tafakkur darajasini oshirib borish uchun ta'lim tizimida muayyan bosqichli o'quv-tarbiyaviy jarayonni qamrab oluvchi alohida o'quv dasturini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

- yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni targ'ib etish, buning uchun zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

- o'quv-tarbiyaviy jarayonda yoshlarni ommaviy axborot vositalari materiallari bilan tanishtirish va ularni ham shu jarayonga jalb etib borish;

- o'quv dargohlarida faoliyat ko'rsatuvchi psixolog-o'qituvchilar yordamida yoshlarning qobiliyat va iqtidorlarini ularning qiziqishlari asosida muayyan kasbga yo'naltirish, dunyoqarashini boyitish, bu borada zaruriy tavsiyalar va maslahatlar berib borish tizimini samarali tashkil etish;

– o‘quv jarayonida yoshlarning fan yutuqlari va zamonaviy bilimlarni egallashlariga har jihatdan ko‘maklashish uchun ta‘lim tizimida «WI-FI» internet imkoniyatlarini bosqichma-bosqich joriy etib borish va h.k.

a) Ш. М.Мирзиёев оид фикрларидан иқтибос беринг.

2.2. Fuqarolik jamiyatiga oid yondashuvlarini o‘rganish usullari

Fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksak darajada shakllantirish hamda ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatli ta‘minlash – fuqarolik jamiyatini shakllantirishning samarali omilidir.

Shuningdek, bugungi rivojlanish jarayonida shaxsning adolat, burch va mas‘uliyat kabi axloqiy sifatlarning sohibiga aylanishi dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Chunki O‘zbekiston jamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida ikki jihat ko‘zga tashlanmoqda: birinchisi, jamiyatning ma‘naviy-axloqiy muhiti shaxsga keng imkoniyatlar berayotganligi; ikkinchisi, shaxsning o‘z faoliyati bilan jamiyat ma‘naviy-axloqiy muhitiga ta‘sir o‘tkazayotganligi.

**Давомига бирор усулди танлаб БМИ мавзўсини очиб беринг. Масалан
“Кейс стади”, “Бумеранг”, “ВЕЕР” , “Ақлий хужум”.....**

XULOSA

Inson huquqlari va manfaatlari ustuvor hamda davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ma'rifiy, yuksak ma'naviy aloqalar mavjud bo'lgan jamiyat deganda fuqarolik jamiyati ko'z oldimizda gavdalanadi. Bunday jamiyatda aholining siyosiy-huquqiy madaniyati va huquqiy ongi darajasi oshishiga, ishtimoiy rivojlanish shart-sharoitlariga davlatning qonunlar doirasida faoliyat ko'rsatishiga hamda fuqarolar ning huquq va erkinliklari to'liq ta'minlanishiga sharoit yaratish asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini barpo etish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish o'ziga xos yo'ldan borilmoqda: birinchidan, xalqimizning qadimiy boy ma'naviy-madaniy hamda tarixiy-huquqiy merosiga, milliy qadriyatlarga tayanilayotgan bo'lsa; ikkinchidan, umuminsoniy qadriyatlarga, xalqaro-huquqiy tajriba va me'yorlarga asoslanib ish ko'rilmogda.

Erkin fuqarolik jamiyatining asosini bir qator muhim g'oyalar tashkil etadi. Xususan:

- ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlariga mos bo'lgan bozor iqtisodiyotining erkinligi;
- inson va fuqaro huquqlarining himoya qilinishi va inson manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligi;
- barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi;
- so'z va matbuot erkinligi;
- kuchli ijtimoiy himoya siyosatining amalga oshirilish;
- diniy bag'ri kenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlanishi.

Fuqarolik jamiyati fuqarolardan yuksak siyosiy, huquqiy savodxonlikni, ma'rifiylik va mas'uliyatni talab etadi. Yuqorida bildirilgan mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va shaxsning ijtimoiylashuvi dialektik birlikni taqozo etadigan uzluksiz jarayon bo'lib, o'zaro aloqadorlikda rivojlanib boraveradi. Ushbu jarayonda shaxs ijtimoiylashuvining sotsiomadaniy xususiyatlarini hisobga olish ilgari surilayotgan oliyjanob maqsadlarga erishishning samarali yo'llaridan biri bo'lib qolaveradi. Fuqarolik jamiyati keng ma'naviy, yuksak madaniy munosabatlar tizimiga, fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligiga, chinakam huquqiy madaniyatga tayanadi. Adolat va insonparvarlik, savob ishlarni qilish va saxovatpeshalik kabi oliy qadriyatlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarning belgilovchi mezon sifatida maydonga chiqadi.